Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; A7; A8; A9; A10; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7; Q8; Q9; Q10.

Ilk yunon falsafasida panteistik qarashlar transformatsiyasi

Yunon faylasuflari mushohada yuritgan dastlabki narsa tabiat, physis ekanligi. Milet faylasuflari uchun dunyoning yagona moddiy mohiyatini qidirish hos ekanligi. Geraklit (eramizdan oldingi 520-460 yillar) fikricha, dunyo ichki yagonalik bilan belgilanib, uning birinchi ibtidosi, mohiyati logos bo'lib, o'z-o'zicha aqliy narsa hamda ayni bir vaqtda olov ekanligi. Eley maktabida borliq masalasining hal etilishi. Borliqning yagonaligi tushunchasining kiritilishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blis, aqliy hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat..*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; A7; A8; A9; A10; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7; Q8; Q9; Q10.

Levkipp va Demokritlar atomizmi olamning o'ziga xos ontologik-kosmologik modeli sifatida

Levkipp Koinot asosida atomlar va bo'shliqning yotishi to'g'risida.

Demokritning birinchi ibtido, ashyo moddani tabiatga muvofiq ravishda tushunganligi. Demokritning harakat haqidagi mexanistik qarashlari. Sababiyatni qat'iy determinizm ruhida tushini. Cheksiz makonda ko'plab cheksiz dunyolar mavjud ekanligining ta'kidlanishi. Dunyolarning tashkil topishiga sabab "quyun" bo'lib u o'z navbatida bo'shliqda tartibsiz ravishda harakat qilayotgan atomlarning to'qnashuvidan kelib chiqishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blis, aqliy hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat..*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; A7; A8; A9; A10; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7; Q8; Q9; Q10.

Aflotunning borliq

Aflotunning g'oyalar nazariyasi "Nima real mavjuddir?" degan borliq haqidagi masalani asos qilib olgan naturfalsafiy ta'limotlarga o'xshab talqin etilishi mumkin ekanligi. G'oyalar –hissiy idrok etiladigan narsalar ekanligi. G'oyalar makon va zamondan qat'i nazar mavjud ekanligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blis, aqliy hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat..*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; A7; A8; A9; A10; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7; Q8; Q9; Q10.

Arastuning borliq haqidagi qarashlari

Har bir alohida narsa (javhar) shakl va materiyadan tashkil topganligi. Arastu fikricha, tabiiy narsalar, inson tomonidan yaratilgan narsalarga qarshi o'laroq, turli sabab, yoki prinsiplarga o'z holicha ega bo'lishligi. Arastu o'zgarishlarning to'rt turini joriy etganligi.

Substansial o'zgarishlar, sifat o'zgarishlari, son o'zgarishlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim. Blis, aqliy hujum, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1;A2; A3; A4; A5; A6; A7; A8; A9; A10; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7; Q8; Q9; Q10.

“Shaqr va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarining kalendar

tematik rejasi

t/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	soat
1	Qadimgi Hindistonda borliqqa oid tasavvurlarning shakllanishi. Vedalar davri	2
2	Qadimgi Hind mumtoz falsafasi maktablarida borliq masalasining qo'yilishi	4
3	Buddaviylik diniy-falsafiy ta'limotida	2
4	Jayнизм diniy-falsafiy ta'limotida borliq masalasi	4
5	Qadimgi Xitoyda olam to'g'risidagi ilk falsafiy fikrlarning shakllanishi	4
6	Konfusi, Men-Szi va Syun-szilar falsafasida borliq masalasining qo'yilishi	2
7	Daosizmida borliq masalasi	4
8	Ilk yunon falsafasida panteistik qarashlar transformatsiyasi	4
9	Levkipp va Demokritlar atomizmi olamning o'ziga xos ontologik-kosmologik modeli sifatida	6
10	Aflotunning borliq	6

11	Arastuning borliq haqidagi qarashlari	6
Ja'mi		44

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

Magistr mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Qadimgi Sharq falsafasida borliq masalasining shakllanishi va rivoji.
2. Qadimgi Xitoyda falsafiy fikrlarning shakllanishi va rivoji.
3. Konfusiylar falsafiy ta'limotida borliq muammosi
4. Lao Szining «Dao» va «De» ta'limoti
5. Qadimgi Hindistonda borliq to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi.
6. Qadimgi Hind mumtoz falsafiy maktablari Yoga, Nyaya va Mimansada borliq masalasi
7. Buddizm va jaynizm diniy falsafiy maktablarda, borliq masalalari.
8. Maxayana va Xinyanada borliq masalasining qo'yilishi.

Izoh: Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

“Shaqr va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri” fanidan talabalarining mustaqil ishlarini seminar, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularini to'ldirishga harakat qilinishi lozim. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, birlamchi manbalardan tarjimalar qilish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib

ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarining darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Shaqr va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzular ko'rinishida shakllantirilgan.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajar. muddat	Hajmi (soatda)
I semestr				
1	Qadimgi Sharq falsafasida borliq masalasining shakllanishi va rivoji.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va tarjimalar qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, og'zaki blis-savollarga tayyorgarlik ko'rish	1,2,3 - haftalar	5

2	Qadimgi Xitoyda falsafiy fikrlarning shakllanishi va rivoji.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, og'zaki blis-savollarga tayyorgarlik ko'rish	4-5 haftalar	5
3	Konfusiyl falsafiy ta'limotida borliq muammosi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish.	6-7- haftalar	5
4	Lao Szining "Dao" va "De" ta'limoti	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish.	8-9-10 haftalar	5
5	Qadimgi Hindistonda borliq to'g'risidagi tasavvurlarning	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, og'zaki blis-savollarga tayyorgarlik ko'rish	11-12- haftalar	5
6	Qadimgi Hind mumtoz falsafiy maktablari Yoga, Nyaya va Mimansada borliq masalasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, og'zaki blis-savollarga tayyorgarlik ko'rish	13-14-15- haftalar	5
7	Buddizm va jaynizm diniy falsafiy maktablarda, borliq masalalari.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish.	16-17- haftalar	5
8	Maxayana va Xinayanada borliq masalasining qo'yilishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Birinchi manbalarni topib o'qish va iarjimalar qilish. Individual topshiriqlarni bajarish, og'zaki blis-savollarga tayyorgarlik ko'rish	18-19-20- haftalar	5
Jami				40

Dasturning informasion –metodik ta'minoti

Dasturdagi mavzularni o'tishda zamonaviy interfaol metodlardan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Matbuot konferensiyasi", "Bumerang", "Munozarali dars", "Suqrotcha bahs", "Aqliy xujum", "Dumaloq stol" hamda

mavzularga doir slaydlardan, o'quv kinofilmlardan foydalanish, didaktik va rolli o'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

“Shaqr va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi

asosida baholash mezonlari.

“Shaqr va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalar bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish, mustaqil ta'limni baholash va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;
- **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Falsafa» fani bo'yicha talabalar bilim saviyasi semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Ooniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabani saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.
- Talabani fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$K = 120 \times \text{ball} : 100$$

bu yerda: *V*- semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);
O' -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.
- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.
- Talabani semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.
- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzidor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	ON ballari		
		maks	1-ON	2-ON
1	Talabalarga variantlar asosida savolnomalar tarqatiladi, har bir savolnomada 3 tadan savol bo'lib, ularning 2tasi bevosita auditoriya soatlari kesimida o'tilgan mavzular yuzasidan bo'ladi. Har bir mukammal yozil savolga talaba 5 ballni qo'lga kiritadi.	20	0-10	0-10
2	Talabalarga variantlar asosida savolnomalar tarqatiladi, har bir savolnomada 3 tadan savol bo'lib, ularning 1 tasi bevosita auditoriyadan tashqari, ya'ni mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzular yuzasidan bo'ladi. Bu savol uchun talaba maksimal 5 balni	10	0-5	0-5
Jami ON ballari		30	0-15	0-15

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko'rsatkichlar	J N i		
		maks	ballar	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi.	20	0-10	0-10
	Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	20	0-10	0-10
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	20	0-10	0-10
Jami JN ballari		40	0-20	0-20

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo‘lib fan bo‘yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

Ko‘rsatkichlar	YaN ballari	
	maks	O‘zgarish
1-savolga yozma javob berish	10	0-10
2-savol yozma javob berish	10	0-10
3-savol yozma javob berish	10	0-10
Jami	30	0-30

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo‘lib fan bo‘yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

Ko‘rsatkichlar	YaN ballari	
	maks	O‘zgarish
1-savolga yozma javob berish	10	0-10
2-savol yozma javob berish	10	0-10
3-savol yozma javob berish	10	0-10
Jami	30	0-30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko‘p variantli usulda o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 0-10 ball oralig‘ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to‘plashi mumkin.

Yozma sinov bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga

qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaniy yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

7. Karimov I.A. Sobranie trudov t.1-19 - Toshkent, "O'zbekiston", 1996-2011.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, "Ma'naviyat", 2008.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning BMT Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan Sammiti yalpi majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2010 yil 22 sentabr.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr
11. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2010 yil 8 dekabr.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 440 b.
13. Falsafa tarixi. – Toshkent: 2006.
14. Jumaboyev I. O'zbekistonda falsafiy va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan.- Toshkent: O'qituvchi, 1997 .
15. Qodirov M. Shaqr va G'arb falsafasining o'zaro ta'siri. TDSH. 2011.
16. Ma'naviyat yulduzlari. - Toshkent: Meros, 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar:

11. Jumaboyev I. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari. T., 1980 y.
12. Sharipov A.D. Velikiy mislitel Beruniy. T., 1972 y.
13. Stepanyans. M.T. Filosofskie aspekti sufizma. M., 1987.
14. Oripov M.K. Poklik va komillik ramzi. Yosh kuch jurnal. T., 1994.
15. Buyuk iste'dod sohiblari. T., 2002 .
16. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., 1991.
17. Imom Buxoriy. Hadis. I-IV. 1991-1996.
18. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993.
19. Usmonov O. Bahouddin Naqshbandiya va uning ta'limoti. T., 1994.
20. Usmonov M.O. O'rta asr Sharq buyuk mutafakkiri ar-Roziy. T., Fan. 1968.

Internet manbalari

7. www.gov.uz
8. www.bilim.uz

9. [www. bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz)
10. www. zamin.freenet.uz
11. www. ziyo-uz.land.ru
12. <http://ustoz.freenet.uz>

1-MAVZU

QADIMGI SHARQ FALSAFASIDA BORLIQ MASALASI

Reja:

1. Qadimgi Sharq falsafasida borliq masalasida
2. Qadimgi Misrda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi
3. Qadimgi Shumer va Bobilda ijtimoiy tafakkur

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda ularning asosiy mutaxassislik fani bo'lgan Sharq falsafiy tizimlarining shakllanishi haqida tushuncha hosil qilish, xalqimiz qon-qoniga singib ketgan insoniylik fazilatlari Sharq falsafasining asosi ekanligi to'g'risida ko'nikmalarni shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Sharq falsafasi, borliq, qadimgi Sharq falsafasi, dunyoqarash, Yaqin Sharq, Baynalnahrayn, Shumer, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy, asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash), diniy tasavvurlar, mantiqiy tafakkur.

Qadimgi Sharq falsafasida borliq masalasida

Dunyoning kelib chiqishi, uning mohiyati va insonning undagi o'rni haqidagi savolga javob topishga harakat qilgan qadimgi falsafiy tizimlar o'zining uzoq tarixiga egadir. Insonni o'rab turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borgan. Inson dunyoga bo'lgan o'z munosabatini dastlab nazariy shakllarda ifoda qila olmagan. Inson amaliy faoliyatining rivojlanishi voqealarning muayyan izchillikda mushohada qilishga asoslangan uning qobiliyatini takomillashishiga olib kelganligi orqasida tabiat hodisalarining ba'zi qonuniyatlarini idrok etishga muvaffaq bo'lgan. Tilning rivoji va avvalo majhul tushunchalarning paydo bo'lishi nazariy tafakkurning shakllanishiga turtki bo'lgan. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish, zamon haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlagan. Faqat abadiy narsagina mukammal bo'lishi haqidagi tasavvur kelib kelib chiqqan. Abadiylik ilohiy mavjudlik va faoliyatlilik sifatida namoyon bo'la boshlagan.

Inson tafakkuri taraqqiyotining muhim natijasi sifatida yozuv kashf etilgan. U bilimlarni avlodlardan avlodlarga uzatishning yangi imkoniyatini beribgina qolmay, balki bilimlarning o'z taraqqiyoti tagzaminini ham boyitgan.

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur taraqqiyoti to'g'ri chiziq bo'ylab rivoj topmagan. Garchi ba'zi taraqqiyot bosqichlarida va ayrim sohalarda o'zaro ta'sirni istisno qilmagan holda, Sharqqa taalluqli bo'lgan o'rganilayotgan uch mintaqa, ya'ni Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy – mustaqil madaniy butunlikni tashkil etgan.

Yaqin Sharq tom ma'noda qadimgi davrda falsafiy an'anaga asos sola olmagan. Ammo u dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli o'laroq, dehqonchilik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan doimiy ravishda ilgarilab ketgan. Bu narsa bilim va tajriba to'planishiga omil bo'lgan. Hosil qilingan amaliy ma'lumotlar nazariy tafakkur rivoji uchun turtki bo'lgan. Ular umuman diniy tasavvurlar, mafkura va madaniyatga o'z ta'sirlarini o'tkazganlar.

Ushbu boy meros asoslarini Kichik Osiyo qirg'oqlarida yashovchi yunonlar va ular orqali butun ellinistik dunyo o'zlashtirib olgan. Insoniyatning barcha bilim sohalariga Yunoniston qo'shgan buyuk hissani, shu jumladan, falsafa sohasidagi tafakkur taraqqiyotini yuqoridagi asoslarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yaqin Sharqning qadimgi madaniyati Hindiston bilan aloqada bo'lgan. Ammo bu yerdagi fikr taraqqiyoti avval boshdanoq ozmi-ko'pmi mustaqil ravishda rivojlangan. Hindistonda iqtisodiy, siyosiy va irqiy o'zgarishlarga qaramasdan, falsafiy an'ana to'laligicha hech qachon uzilmagan. Bu an'ana hind jamiyatida doimiy barhayot merosning barqaror unsuri sifatida mavjud bo'lgan.

Xitoyning qadimgi va o'rta asrlar falsafasini ham Xitoy jamiyatining ma'naviy hayotidan ajratib bo'lmaydi. U ham mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Ammo faqat buddaviylik unga sezilarli ta'sir etgan bo'lsa ham, biroq bir necha asrlar davomida u mahalliy an'ana va ma'naviy hayotga moslashtirilgan.

Eramizdan oldingi IV va III ming yilliklar orasida Baynalnahr va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo'lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o'lkalaridagi yozma yozgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo'lgan to'la falsafiy tizimlar emasligi ayon bo'ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta'limot) haqidagi muammo hamda insonni, uni o'rab turgan dunyoni bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasi) haqidagi masalada aniqlik yo'q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an'analari ibtidosida turgan qadimgi yunon mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasi rivojini va unga bog'liq bo'lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning merosisiz to'la tushunib bo'lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta'sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yuz yil ichida qo'lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to'g'ri keladi.

Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) – insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy

munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir. U garchi hayoliy bo'lsa ham, bu dunyoning paydo bo'lishi, tabiiy tartibning ma'nosi haqidagi savolga berilgan birinchi javobdir.

Dunyoni asotir tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan yaqindan bog'liq bo'lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyati haqidagi asrlar davomida to'plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Mantiqiy fikrlash (falsafa)gina inson tafakkurini afsonaviy an'analar va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog'lab qo'ygan zanjirlardan ham xalos qila olish imkoniyatini beradi.

O'tmishdagi Sharq falsafasini o'rganish o'sha davrdagi nuqtai nazarlarni bugungi erishilgan nazariy natijalar bilan qiyoslash imkoniyatini beradi. Sharq falsafasi dunyoni va jamiyatni tushunishda asosiy falsafiy muammolarni bayon qilish usullarining muayyan majmuini o'z ichiga olgan. U o'ziga xos sharqona tafakkur tarzini shakllantirganki, hozirgi yosh avlod ham undan benasib qolmasligi kerak.

Qadimgi Misrda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi

Eramizdan oldingi IV-III mingyilliklar orasida yagona Misr davlati paydo bo'lmagan oldin misrliklar tasavvurida inson tabiati, o'limi va narigi dunyodagi hayoti haqida muayyan qarashlar shakllangan edi. Misrliklar fikricha: "Ismga ega bo'lmagan narsa, mavjud bo'lmaydi". Shuning uchun tabiiyki, qabr toshida abadiylashtirilgan ism o'lgan kishi hayotini abadiylashtiradi; va aksincha, ismni yo'q qilish, uni egasini yakson qilish bilan barobardir. Misrliklar tasavvurida jasadni butun holda saqlash narigi dunyodagi abadiy hayotga zamin bo'lar edi. Shuning uchun jasadni mumiyolash rasm bo'lgan.

Narigi dunyodagi abadiy hayotga qarshi bo'lgan aqidani ifodalovchi asar bo'lgan "Arfa chaluvchining qo'shig'i" O'rta saltanat davrida, ya'ni eramizdan oldingi III mingyillik oxirida XI sulola fir'avni Intef hukmronligi davrida paydo bo'lgan edi.

Bu asarda qayd etilishicha, yerdagi barcha narsa foni bo'lib, hammasi yo'q bo'lishi muqarrardir; asrlar davomida kishilik jamiyatidagi avlodlar birlari ketidan boshqalari qabrga manzil tutadilar, qabr yodgorliklari yemiriladi va yo'qoladi, va ko'milganlardan hatto hech qanday esdalik qolmaydi; faqat qadimgi dunyoning donishmandlari bo'lgan Imxotep va Djedefxorni shuning uchun eslaydilarki, ularning aytganlarini hamma biladi va takrorlab turadi; o'lganlardan hech biri narigi dunyodan qaytib kelmaganki, tiriklarga ularni nima kutayotganligini gapirib bersa; shuning uchun hayotning barcha ne'matlaridan foydalanish kerak, shodu-xurramlik va lazzatlanish zarur, negaki, o'limning barhaqligini hech qanday narsa bartaraf qila olmaydi.

“Arfa chaluvchining qo‘shig‘i” yerdagi hayotga yuqori baho beribgina qolmay, narigi dunyoga nisbatan bo‘lgan e’tiqodga, yashirmasdan, umidsizlarcha qarashni boshlab berdi.

Berlinda saqlanayotgan papiruslarda bitilgan qadimgi Misr adabiyotining eng qiziq va mashhur asari “Hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z ruhi bilan suhbat”, deb nomlangan. Papirus O‘rta saltanat davriga taalluqlidir. “Suhbat” savol-javob shaklida bo‘lib, hayotdan to‘ygan va o‘zini o‘zi o‘ldirmoqchi bo‘lgan shaxsning o‘z ruhi bilan ichki muloqotidirki, unda ruh hayotni zarurligini ta’kidlab, uni sohibini o‘z ra’yidan qaytarmoqchi bo‘lgan.

“Bugun men yuragimni kimga ochay?” “Hafsalasi pir bo‘lgan kishi”ning javobi ham o‘ziga xos: “Yuraklar ochko‘zlik bilan to‘lib toshgan, har kim birovning haqiga qo‘l cho‘zadi”; “Olijanob kishilar yo‘qligidan, mushtumzo‘rlarga keng maydon ochiq”; “Behayo o‘z qurbonini toptaydi, kishilarga esa, tomosha bo‘lsa-bas!”; “Ilgarigi yaxshi zamonlarni hech kim eslamaydi. Yaxshilikka yaxshilik qaytishini kutmaysan”; “Do‘stlar po‘panak bosib qoldilar, birovlardangina rahm-shavqat kut”; “Adolatli kishilar yo‘q, yer makkorlarga berilgan”; “Qabohat yer yuzini bosib ketgan, uning boshi ham, oxiri ham yo‘q”.

“Hafsalasi pir bo‘lgan”ga e’tiroz bildirib, uning “ruhi” yer yuzidagi tartiblarga to‘xtalmaydi, ammo o‘lim va narigi dunyo to‘g‘risida butunlay boshqa nuqtai nazarni bayon qiladi. Uning fikricha, o‘lim va narigi dunyo to‘g‘risida o‘ylashning hech keragi yo‘q; ehromlar va maqbaralar qurishning ham zaruriyati yo‘q. Ular baribir buziladilar va hech kimga yaroqsiz holatga tushadilar. Shuning uchun hayotning lazratlaridan foydalanish kerak.

Qarshimizda qadimgi Misr jamiyati ijtimoiy fikrining ikki bir-biriga qarshi oqimi vakillarining savol-javoblari turganligi ayondir. “Hafsalasi pir bo‘lgan kishi” muhofizakor (konservativ) yo‘nalish vakili bo‘lib, an’anaviy ta’limot bo‘lgan o‘lim va narigi dunyodagi hayotga qat’iy ishonadi va jamiyatdagi yangi munosabatlarni shafqatsiz va chidab bo‘lmas, deb qoralaydi. Uning “ruhi” esa, bar aks, hamma tomonidan qabul qilingan abadiy barhayotlik diniy aqidasi tanqid qilib, qanday ko‘rinishda bo‘lmasin insonni o‘z hayoti bilan murosaga kelishga undaydi.

Qadimgi Shumer va Bobilda ijtimoiy tafakkur

Shumerliklar madaniyati Misr bilan bir qatorda dunyodagi eng qadimgi yodgorliklardan biridir. Eramizdan oldingi IV mingyillik oxirida Baynalnahrayndagi Dajla va Frot daryolari vodiysida mehnat taqsimoti tufayli jamiyat toifalarga bo‘lingan edi. Ammo Misrdan farqli o‘laroq, Baynalnahrayn madaniyati bir xil emas edi. Uni vujudga kelishida Shumer xalqi ishtirok etgan bo‘lib, uning tili bizga ma’lum bo‘lgan tillar guruhining hech biriga kirmaydi.

Baynalnahrayn yozuvi Shumer xalqi ijodidir. Bu mixxat yozuvini avval akkadliklar, keyinroq Old Osiyoning boshqa xalqlari ham iqtibos qilgan edilar. Bu yozuv uch ming yil davomida tadrijiy rivojlanish va takomillashishda bo‘lganligi isbotlangan. Shumer yozuvi matnlarining bizgacha yetib kelganlari eramizdan oldingi XIX-XVIII asrlarga taalluqli bo‘lib, bu vaqtda Shumer tili yo‘q bo‘la boshlagan edi.

To‘fon to‘g‘risidagi Shumer afsonasida xudolar tomonidan inson zotining yaratilishi va yer yuzidagi tartiblarning qanchalik mukammalligi bayon qilingan edi. Ammo noma‘lum sabablarga ko‘ra, xudolar insoniyatni yo‘q qilishga qaror qilganliklari bayon etiladi. Adolatli va taqvodor hukmdor Ziusudra ilohiy vahiya bo‘ysunib, katta kema qurganligi va shu tufayli najot topib, xudolar tomonidan abadiy hayotga loyiq ko‘rilganligi ta‘kidlangan. Matnda “barcha o‘simliklar va inson urug‘i ismlarining najotkori”, deb atalgan Ziusudra xudolar tomonidan Quyosh chiqadigan mamlakat oroli bo‘lgan Tilmunga (Bahrayn) joylashtirilganligi qayd etilgan. “Ism, shumerliklar tasavvurida dunyoning barcha moddiy hodislarining ruhiga o‘xshash mohiyatdir”.

Shumerliklarning ko‘mish marosimida kuylanadigan marsiyalarining biri “inson va uning shaxsiy xudosi”, deb nomlanadi. Unda taqdirga tan bergan, aqlli kishining to‘satdan kasallikka chalinganligi va shu munosabat bilan o‘z xudosiga najot istab murojaat qilishi tasvirlangan. Bu ilk diniy-falsafiy asar ekanligi uning mazmunidan anglashiladi. Bunda azob-uqubatlar sababi, dunyoviy adolatsizlik, taqdirning ko‘r-ko‘rona ish tutishi, olijanob kishi hissasiga tushgan sinovlarning bayoni berilgan. “Men – aqli raso kishi bo‘laturib nega johil yoshlar bilan ish yuritishim kerak, - deb savol qo‘yadi azob tortayotgan shaxs. Men bilag‘on kishi bo‘lsamu, nega meni johillar qatoriga qo‘yishadi? Atrofda yegulik farovon bo‘lsa-da, mening yeguligim – ochlik”.

Bir tomondan ayrim shaxslarning qo‘lida katta boyliklar to‘planishi, ikkinchi tomondan esa, quyi tabaqadagi ozod yollanma kishilarning qashshoqlashib borishi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirganligi birinchi Bobil sulolasi davrida (eramizdan oldingi II mingyillik boshida) ochiq namoyon bo‘lgan edi. Natijada shu davrda mashhur podsho Xammurapining qonunlar majmuasi ishlab chiqilgan edi. Bunda diniy qarashlardan ko‘ra, ko‘proq dunyoviy ishlarga, jumladan jinoyat va jazoga, yangi iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib yondoshilganligi aks etgan. Jinoyatni kelib chiqishi talqinida “g‘ayri tabiiy” kuchlar aralashuviga yo‘l qo‘yilmagan. Yuridik hujjatlarning guvohlik berishicha, hukmdorlar o‘z qaror va hukmlarida hurmat yuzasidan ilohiy kuchlarga murojaat qilsalar-da, muayyan huquqiy tadbirlarda ko‘proq dunyoviy jihatni hisobga olganlar. Hukmlar ijtimoiy boshqaruv ehtiyojlarini hisobga olib hukmdorlarning hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan edi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Inson dunyoga bo'lgan o'z munosabatini dastlab qanday ifodalagan?
2. Donolikning mohiyati nimada?
3. Sharq falsafasini o'rganishning dolzarbligi nimada?
4. Dunyoni asotir tushunish va moddiy tushunish deganda nimalarni tushunasiz?
5. Sharq falsafasini o'rganish qanday ahamiyatga ega?
6. Qadimgi misrliklar tafakkurida ismlarning qanday ahamiyati bor edi?
7. Qadimgi misrliklarning hayot va o'lim to'g'isidagi qarashlari nimalarga asoslangan edi?
8. Qadimgi misrliklarning "ism o'lgan kishilarni abadiylashtiradi", degan fikrlarini qanday izohlaysiz?
9. Qadimgi misrliklar dunyoqarashida narigi dunyoga bo'lgan munosabat qanday ifodalagan?
10. "Arfa chaluvchining qo'shig'i" asaridagi fikrlarning falsafiy mohiyati nimada, deb o'ylaysiz?
11. Ushbu asardagi fikrlar bugungi kunda qanchalik ahamiyatga ega?
12. "Hayotdan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z ruhi bilan suhbat" qo'lyozmasining mohiyati nimada?
13. Qadimgi misrliklar tafakkurining o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. "Hayot nima?" mavzusida falsafiy esse yozing.
2. Qadimgi Sharq falsafasiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Sharq falsafasini yunon falsafiy ta'limotlariga ta'sir qilgan jihatlarini toping va referat tayyorlang.
4. Qadimgi O'rta va Yaqin Sharq, Xitoy va Hindiston falsafasiga oid eng umumiy jihatlarini toping va slayd tayyorlang.
5. "Qadimgi Misrda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi" mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. "Qadimgi Misr falsafasiga mening munosabatim" mavzusida falsafiy esse yozing.
7. Qadimgi Misr falsafasiga oid internet materiallarini to'plang va taqdimot qiling.

8. “Arfa chaluvchining qo‘shig‘i” asarining mazmuni bo‘yicha referat tayyorlang.
9. “Hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z ruhi bilan suhbat” qo‘lyozmasining falsafiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘zbekiston, 2008.
2. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. –T.:O‘zbekiston, 1996
3. Turaev B. A. Istoriya drevnego Vostoka. T. 1. –L., 1935.
4. Struve V. V. Istoriya drevnego Vostoka. –L., 1941.
5. Istoriya filosofii v kratkom izlojenii. –M.: Misl, 1991.
6. Istoriya filosofii. T. 1. –M., 1957.
7. M.EMate. Istoriya iskusstva Drevnego Vostoka.T. 1.–L., 1941. Istoriya vsemirnoy literaturi. T. 1. –M.: Nauka, 1983.
8. Kratkiy ocherk istorii filosofii. –M., 1960.
9. Istoriya filosofii v kratkom izlojenii. –M.: Misl, 1991.
- 10.Turaev B. A. Istoriya drevnego Vostoka. T. 1. –L., 1935.
- 11.Struve V. V. Istoriya drevnego Vostoka. –L., 1941.

2-MAVZU:

QADIMGI XITOIDA FALSAFIY FIKRLARNING SHAKLLANINSHI VA RIVOJLANISHI

Reja:

- 1. Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushuncha.**
- 2. Qadimgi Xitoyda falsafa maktablarining borliq haqidagi ta’limotlari**
- 3. Maktablar haqidagi yozma manbalarda ontologik masalalar**

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda o‘zining uzoq yillik tarixi va madaniyatiga ega bo‘lgan tarixga ega bo‘lgan Xitoydagi borliq haqidagi eng qadimgi asotir tafakkur tarzi va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi haqida tushunchalar hosil qilish, shuningdek, talabalarda ushbu falsafiy qarashlarni Qadimgi yunon falsafasi bilan qiyosiy tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Qadimgi Xitoy, dunyo, inson, ilohiylashtirilgan muhit, osmon, yer, oliy qoida, oliy hukmdor, ajdodlar ruhi, devlar, alqov, fol, kelajak bashorati, bronza idishlar, “O‘zgarishlar kitobi”, “Tog‘lar va dengizlar kitobi”, donishmand erlar. “Shu-jing”, oy-quyosh taqvim, Shan-in, dunyo, inson, “Chun syu”, oliy qoida, Si (“havo”, “efir”), in (“salbiy” “zulmat”) va yan (“ijobiy”, “yorug‘lik”), (Shi-jing) (“She‘rlar kitobi”), “samo” va “ajdod”lar ruhi,

Xitoy falsafasida dunyo va inson haqidagi tushuncha

Xitoy falsafasi dunyo va inson haqida o‘ziga xos tushunchalar yaratgan. Xitoy falsafiy tafakkurining ibtidosi ham, xuddi keyinchalik Qadimgi Yunonistonda bo‘lgani kabi asotir tafakkurga borib taqaladi. Xitoy afsonaviy fikrida ham osmon, yer va tabiatdagi barcha narsalar ilohiylashtiriladi. Ilohiylashtirilgan muhitdan eng oliy qoida keltirib chiqariladiki, u dunyoni boshqarib, ashyolarga mavjudlik baxsh etadi. Ushbu qoidaga gohida shaxsiyat bag‘ishlanib, eng oliy hukmdor (shan-di) sifatida tushunilsa ham, ko‘pincha “osmon” (tyan) so‘zi bilan ifodalanadi.

Butun tabiat jonlantirilgan – har bir narsa, joy va hodisa o‘z devlariga ega. O‘lgan ajdodlar ruhini hurmatlash keyinchalik ularga sig‘inishni keltirib chiqarib, Qadimgi Xitoyning muhofazakorona tafakkur yuritishiga olib kelgan. Ruhlar insonga uning kelajagini bashorat qilishi, uning xulqi va faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin, deb tushunilgan. Qadimgi afsonalarning ildizlari eramizdan oldingi II minginchi yillar qa‘riga borib taqaladi. O‘sha vaqtda Xitoyda alqov so‘zlar va ifodalardan foydalanib, fol amaliyoti orqali ruh bilan aloqaga kirish yoyilgan edi. Bunday alqov yozuvlarni bronza idishlarga yozilgan ayrim parchalar, keyinchalik esa, “O‘zgarishlar kitobi”dan mushohada qilish mumkin. Qadimgi Xitoy afsonalar to‘plami eramizdan oldingi VII-V asrlarga taalluqli “Tog‘lar va dengizlar kitobi” (Shan xay szin)da bayon etilgan.

Xitoy falsafiy fikri rivojining o‘ziga xos xususiyati ularga donishmand erlar, deb atalmish kishilarning (er.ol. I mingyillikning birinchi yarmi) ko‘rsatgan ta’siri bilan belgilanadi. Ularning ismlari ma’lum bo‘lmasa ham, ammo shu narsa seziladiki, ular dunyoni afsonaviy tushunish chegarasidan chiqib, uni tushunchalar orqali idrok qilishga harakat qilganlar. Afsonalar bilan borliqni tushunchalar orqali idrok qilishga aloqa chizig‘i tortgan bu donishmandlar ijodidan keyingi Xitoy faylasuflari naqlu qavllar keltirganlar va ularning qarashlarini rivojlantirganlar.

Xitoyda falsafiy qarashlar erta paydo bo‘lgan bo‘lib, jamiyatda qulchilik tizimining shakllanishi va sodda tabiiy bilimlarning rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Arxeologlar suyaklarda topgan yozuvlari, “Shu-jing” deb nomlangan

qadimgi kitob Xitoy munajjimlari Shan-in davridayoq (er.av. 18-12asr) yilni 366 kundan iboratligini aniqlab, oy-quyosh taqvimini yaratganligidan guvohlik beradi. Oy va quyosh yillari o'rtasidagi farqni bartaraf etish uchun ular har 3 yilda taqvimga qo'shimcha oy qo'shdilar. Er. avv. 7 asrda esa, ular oy-quyosh taqvimini takomillashtirdilar. Bunda har 19 yilga 7 ta qo'shimcha oy qo'shildi. Qadimgi Xitoy olimlari tomonidan oy-quyosh taqvimining yaratilishi Yerga nisbatan yulduz, quyosh va oyning joyini o'zgarishini va harakatlarining ko'p asrlik kuzatuvlari natijasida asoslangan edi. Er.avv. ikkinchi ming yillikning oxiridan boshlab qadimgi Xitoy munajjimlari quyosh tutilishi haqidagi yozuvlarni olib bordilar. Ko'p o'tmay ularning davriyligidan xabardor bo'ldilar. Er. avv. 7-asrdayoq yilni alohida davrlarga bo'linishini aniqlab beradigan yozgi va qishki teng kunlikni aniqlash uchun quyosh soatlari qo'llanar edi. Qadimgi manbalarda kameta va meteoridlar haqida ko'plab yozuvlar mavjud. Masalan, "Chun syu" yilnomalarida kametani eramizdan avvalgi 611 yilda qutb yulduzi hududiga kirganligi haqida yozilgan. Ularda meteor yomg'irlari haqida ham ko'p sonli yozuvlar mavjud. Xususan er.av. 687 yilning 6 martida bo'lib o'tgan meteor yomg'iri haqida yozilgan. Er.avv. 4-asrda Xitoy munajjimlari Gan De va Shi Shen yulduzlar haqidagi 2 ta kitobni yozdilar, keyinchalik u "Gan Shi Sin-szin" nomi bilan bitta umumiy yulduzlar katalogini tuzdilar. Bu dunyo bo'yicha tuzilgan yulduzlar haqidagi dastlabki katalog edi. Qadimgi Xitoyda astronomiya bilan bog'liq materialistik fanlar yuqori darajaga erishdi.

Masalan, Chjan San (er.avv. 2-asrning birinchi yarmi) va Szin Chou-chan (eramizning I asri) qadimgi manbalarga asoslanib "9 bobdan tashkil topgan arifmetika" oid kitob yaratdilar. Unga muvofiq koeffisientlarni tenglashtirish yordamida noma'lumlarni izchil istisno qilish yo'li bilan 2 ta va 3 ta noma'lum soni bo'lgan birinchi darajadagi tenglamalarni yechishda tizimli uslub bayon etiladi. bu asarda matematika tarixida ilk bor manfiy sonlar va ular bilan hisob-kitob qilish qoidalari berilgan. Kitobda kvadrat va kubga sonlarni kiritish qoidalarida asoslangan kvadrat va kub ildizlarni topish uslubi tasvirlangan.

Kitob mualliflari tengburchakli uchburchakni gipotenuzasi kvadratini katetlar kvadrati yig'indisiga tengligi haqida ham xabardor edilar.

Qadimgi Xitoy xo'jaligining asosiy sohasi bo'lgan ziroatchilikning rivojlanishi davrida astronomik va biologik bilimlar to'plandi. Birgina (Shi-jing) ("She'rlar kitobi") kitobida madaniy va yovvoyi o'simliklarning 200 dan ziyod turlarining tavsifi beriladi.

Qadimgi Xitoyning hunarmandchiligi ham takomillashgan edi. Shan In davridayoq, ya'ni eramizning ikkinchi ming yilligining ikkinchi yarmida sopol buyumlar, yog'ochdan turli maxsulotlar, asl bronza qurollar, shoyi matolar tayyorlanar edi. Er. avv. 6-asrda temirning tarqalishi ishlab chiqarishning barcha

sohalarida, hattoki ijtimoiy munosabatlarda o'zgarishlarga va ilmiy bilimlarni yuksalishlarga olib keldi. Bu davrda katta qurilish ishlarini amalga oshirish, ko'p sonli saroy va shahar qalalarini qurish, quvur va suv tizimlarini barpo etish avj oldi. Mamlakat harbiy va savdo yo'llari tarmog'i bilan bog'landi. Ishlab chiqarishning barcha sohalaridagi ko'p asrlik ijodiy mehnat keyinchalik kelib fanning ham rivojlanishiga turtki berdi. Ayniqsa, bu davrlarda tabiat sirlarini bilishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu haqida, qadimgi "Go yuy" va "Szyu chjuan" manbalarida ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolingan. O'sha qadim zamonlardayoq suv, olov, yog'och, oltin va yer birlamchi unsurlar ekanligi haqidagi sodda falsafiy qarashlar yozib qolingan. Szyu Chjuanda birlamchi unsurlar Si ("havo", "efir"), in ("salbiy" "zulmat") va yan ("ijobiy", "yorug'lik") kabi tushunchalarni falsafiy nuqtai nazardan bir - biriga bog'lab urganish chuqur mazmun kasb etadi.

O'zgarishlar kitobida ("I jing") 5 ta birlamchi unsurlarning umumiy asosi o'z manbasi "tay szi" "buyuk ibtido" bo'lgan si material substansiya masalalari haqida fikrlar o'z ifodasini topa boshladi.

Xitoy falsafasida bir – biriga qarama - qarshi In va Yan kuchlarga ega bo'lgan si tumansimon massasidan barcha narsalar vujudga keladi, degan nazariya ham mavjudligini ushbu o'rinda e'tirof etib o'tmoq kerak. Qadimgi Xitoyda elementar ilmiy bilimlar asosida paydo bo'lgan sodda materialistik g'oyalar birinchi sinfiy jamiyat – qulchilik jamiyati shakllanish va rivojlanish sharoitida qabila jamoasi a'zolarini qabila zodagonlarining tobora o'sib borayotgan ekspluatatsiya va zulmiga qarshi e'tirozini ifoda etar edi. Shu bilan birga qul va qul egalari o'rtasida qashshoqlashgan jamoa va qabila zodagonlari, kambag'al va qashshoqlar o'rtasidagi sinfiy ziddiyatlar keskinlashib chuqurlashdi.

Qadimgi ("Shi jing") "She'rlar kitobi"da shunday yozilgan: "Ayrimlar qashshoqlikda va qo'rquvda yashaydi, boshqalar esa, sharob va musiqa eshitib rohatlanadilar", "kimda kim ekmasa va mehnat qilmasa, mo'l hosil yig'adi". Bu esa, o'z davrining ilg'or kishilarida "samo" va "ajdod"lar ruhiga ishonmay qo'yishiga olib keldi. Masalan, qadimgi she'rlarda shunday satrlarni uchratamiz: "Samo yovuz va adolatsiz, u insonlarga faqat ofat yog'diradi". Vafot etgan ajdodlarni ular insonparvarlik va insonlarga muhabbat hissidan ajrab qolib, tashlab ketgan o'g'lon va nabira va avlodlari haqida qayg'urmay qolganlikda ayblaydilar. Kishilarda jamiyatni bunday firklashi Qadimgi Xitoyda asta - sekin ateizmning paydo bo'lishiga olib keldi. U konservativ¹ qabila zodagonlariga qarshi kurashda jamiyatning progressiv (ilg'or) kuchlarining jangovar quroli

¹ Китайско –русский словарь / 2004. С.832.

sifatida xizmat qildi. O'sha davr g'ayridinlar orasida yirik siyosiy arboblari – qonun asosida boshqarishning asoschilari Guan Chjun (er.avv. 7 asr), Szi Chan (er.avv. 6 asr) va boshqalar bo'lgan. Ularning fikricha, farovonlik va baxtsizlikni insonlar o'zlari barpo etadilar, ularning taqdiri “samo irodasi”ga tobe emas, degan qarashlar amaliy mazmun kasb eta boshladi. “Qonunlar davlatni tarqqiyotga va jamiyatni farovonlikka eltivuchi yagona yo'l” degan mashhur nazariya Guan Chjunga tegishlidir. Uningcha, Samo osti fuqarolarining barchasi qonun olidida tengdir. “Podsholar esa, qonunlarning buloq - qaynar ko'zi” ya'ni (yaratuvchisi bo'lib), ularning o'zi ham amalda qonunga bo'ysinadilar, aksincha, jamiyat turg'unlik sari yuz burib, (unday) davlat inqirozga yuz tutadi.

Xitoy falsafasiga xos bo'lgan yana bir jihati bu xitoy falsafasida tabiiy fanlarni o'rganishga kam ahamiyat qaratilganligi bilan tasniflanadi. Masalan, xitoy falsafasida metodologik jihatdan tabiiy fanlarga xos bo'lgan ilmiy tushunchalar u yoki bu darajada o'z ifodasini topmagan. Faylasuflar tomonidan tabiiy fanlar ma'lumotlariga murojaat etishni lozim topmaganligi ham bunga ma'lum qadar sabab bo'lgan. Ayrimlar modichilar va natural faylasuflar maktabini bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Ammo, ushbu o'rinda ularning Chjou davridan keyin o'z faoliyatlarini to'xtatganligini ko'zdan qochirmaslik kerak.

Ana shu ma'noda ayrim ma'lumotlarda qadimgi Xitoy falsafasining tabiiy fanlardan ajratilganligi va mantiqqa oid masalalarning ishlanmaganligi, Xitoyda falsafiy tushunchalar shakllanishining sekin kechganligining asosiy sabablaridan biri bo'lgan edi, shuning bois ko'pgina Xitoy maktablari uchun mantiqiy tahlil usuli noma'lumligicha qolib kelgan degan fikrlar ushbu o'rinda ma'lum ma'noda o'zini oqlaydi.

Qadimgi Xitoyda falsafa maktablarining borliq haqidagi ta'limotlari

Qadimgi xitoyda markazlashgan davlatchilikning kuchsizlanishi oqibatida markaziy boshqaruv ma'muriyatning turli soha vakillari (joylardagi hukmdorlarga ta'sir etish uchun) falsafiy maktablar tashkil etishga kirishdilar (1-ilova). Tashkil etilgan maktablar esa, umumiy “Szya” deb nomlana boshladi. Bu nomlash o'z vaqtida ularning jamiyatdagi xususiy maqomini belgilab berar edi. “Szya” So'zining asli mohiyati ham “uy”degan ma'noni anglatadi.

1. Konfusiychilik maktabiga olim – intellektual salohiyat egalari va hunarmandlar asos solgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi Konfusiychilik g'oyalarini targ'ib qilish va uni rivojlantirish bo'lgan. Shu ma'noda ularning amaliy faoliyatida insonparvarlik (Jen) g'oyalarini targ'ib qilish bosh masala bo'lgan.

2. Lao zi asos solgan Dao maktabi. Bu maktabga tarki dunyochilik qilgan darveshlar, muvofaqqiyat va magʻlubiyat, mavjudlik va halokat, qaygʻu va baxt, qadimiylilik va zamonaviylilik yoʻli (Doa)toʻgʻrisida yilnomalar tuzish tufayli “pokizalik va boʻshliq”, “kamsitilish va zaiflashish” orqali “shohona sanʼat” oʻz-oʻzini saqlashga yetishgan xronografiya muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

3. In va Yan (zulmat va yorugʻlik) maktabini, (dunyoni tashkil etuvchi, boshlovchilar) osmon belgilari, quyosh, oy, yulduzlar, koinot moʻljallari, vaqt almashuvini kuzatuvchilar - astronomiya muassasalaridan chiqqanlar yaratganlar.

4. Legizmni, “odob-axloq asosidagi” boshqaruvni (Li) mukofotlar, jazolar, muayan qonunlar bilan toʻldirgan, sud muassasalaridan chiqqanlar yaratishgan.

5.“Ismlar”maktabini, faoliyatlari qadimda mansab va marosimlardagi nominallik va reallik mos kelmaganligi bois ularni muvofiqlashtirish bilan bogʻliq boʻlgan, marosimlar muassasasi vakillari yaratishgan.

6. Moizm maktabiga tejamkorlikni, “koʻp narsani oʻz ichiga oluvchi muhabbat” (Szyan ay)ni “loyiqlarini”(syau) ilgari surishni **navyam** (guy) qadr - qimmatni biluvchi va uni hurmat qiluvchi, (min) “oldindan taqdirga bitilgan” va “bir xillikni” inkor etuvchi ibodatxona qorovullaridan chiqqanlar asos solishgan.

Maktablar haqidagi yozma manbalarda ontologik masalalar

Ushbu oʻnlik maktablariga asoslangan manbalarini eramizdan avval 3-2 asrlarning ensiklopedik yodgorliklari boʻlgan Lyuy shi chunsyu (janob Lyu yaning bahor va kuzi) va Xuaynan szi (Xuaynanlik oʻqituvchining asari)da kuzatish mumkin. Ularning birinchisida (2 – bob, 5-7) “Osmon ostining oʻnta atoqli arboblari roʻyxati kiritilgan: 1) yon berishni koʻplarga oʻrnak qilib koʻrsatuvchi Lao Szi, 2) insonparvarlikni ulugʻlovchi Konfusi, 3) “moʻʼtadillik”ni ifodalovchi Modi, 4) ”soflik”ni ulugʻlovchi Guan in, 5) “borliq”ni ulugʻlovchi Le Szi, 6) “tenglik”ni maqtovchi Tyan-pyan, 7) “egoizm - xudbinlik”ni sharafllovchi Yan Chju, 8)”kuch”ni koʻklarga koʻtaruvchi Sun bin, 9)” Oldinga intilish”ni qoʻllovchi Van byao, 10) “ergashish”ni ulugʻlovchi Er lyan. Ushbu toʻplamda Konfusiychilik, Moizm va Daosizmning xilma-xil koʻrinishlardagi bilan birga soʻnggi uchinchi oʻrinda I ven chji matni bilan bogʻliq “harbiy maktab” oʻz ifodasini topgan. Xuaynan szi asarining umumlashtiruvchi yakuniy – 21 bobi tarkibida falsafa maktablarining vujudga kelishi ijtimoiy - tarixiy shart – sharoitlari toʻgʻrisidagi gʻoyalar keltirilgan boʻlib, ular quydagi tartibda koʻrsatilgan. 1) konfusiychilik. 2) Moizm. 3) Daoni Legizm bilan uygʻunlashtirgan Guan szi taʼlimoti (er.av 4-3 asrlar). 4) konfusiychilikni daosizm bilan uygʻunlashtirilgan va sezilarli ravishda Yan-szi

chun syu (o‘qituvchi Yan bahori va kuzi) ifodalangan Yan-szi ta’limoti. 5) Vertikal va gorizontal (siyosiy ittifoqlar) haqidagi ta’limot. 6) Shen Boxayning “jazolar va ismlar” (sin min) haqidagi ta’limoti; 7) Shan yan (Gun Sunyan)ning (er av 4 asr) qonunlar to‘g‘risidagi ta’limoti; 8) Daosizm bilan sug‘orilgan Lao szi va Xuaynanszi ta’limoti; mazkur bobning boshida Loa-szi va Chjuanszi ta’limoti ajratib ko‘rsatilgan, 2 bobda esa, Yan Chju (Modi, Shen Boxay, Gun Sunyan ta’limoti bilan birga to‘rtlikni tashkil etuvchi) ko‘rsatilgan bo‘lib, yaxlit xolda I ven chji turlanishi bilan o‘zaro munosabatda o‘nta (10) bo‘lingan to‘plamni tashkil etib, xususan, “vetikal va gorizontal (siyosiy ittifoqlar)” maktabiga xos belgi va falsafa maktablarining kelib chiqishi tarixiy voqelikni umumiy bog‘lash orqali aloqadorligi ko‘rsatib berilgan.

O‘zlarini “Xan”lar deb atagan xitoy imperiyasi etnonimi bo‘lib kelgan, markazlashgan Xan imperiyasi shakllanishi davrida yaratilgan “Lyu sin – ban gu” nazariyasi an’anaviy fanda mumtozlik mavqeiga ega bo‘ldi. Keyinchalik, butun xitoy tarixi mobaynida unga ishlov berish davom etib, uning keyingi rivojida Chjan Syuchen (1738-1801) va Chjan Binlin (1890-1936)lar alohida xissa qo‘shdilar.

Bu ta’limot XX asr Xitoy falsafasida Xu Shi tomonidan qattiq tanqid qilinishi bilan birga oltita asosiy maktabni nafaqat turli kasb, balki turli xildagi shaxslar va turmush tarzi vakllari yaratgan degan xulosaga kelgan Fen Yulan tomonidan qo‘llab quvvatlandi va rivojlantirildi. Maktablar haqida ma’lumot beruvchi bu to‘plamlarning uzoq muddat mavjud bo‘lib kelganligi o‘sha davr maktablarining jamiyat haqidagi g‘oyaviy qarashlari xususida yetarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatlarini beradi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Qadimgi Xitoy falsafasini boshqa fanlar bilan aloqadorligi nimalarda ko‘zga tashlanadi?
2. Qadimgi Xitoyda tabiiy fanlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq qanday edi?
3. Qadimgi Xitoydagi asosiy falsafiy maktablar qaysilar edi?
4. Qadimgi Xitoy falsafiy maktablari haqidagi yozma manbalarni bilasizmi?
5. “Ismlar maktabi” deganda nimani tushunasiz?
6. Xitoy falsafasini davrlashtirish masalasiga oid shaxsiy tavsiyalaringsizni bera olasizmi?
7. Qadimgi Xitoy falsafiy tafakkuri bugungi kunda insoniyat oldida turgan qanday muammolarni bartaraf etishga yordam berish mumkin?
8. Qadimgi Xitoy falsafasining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. "Qadimgi Xitoy falsafiy maktablari" mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Mavzu yuzasidan 20ta test, 15ta blits-savol va krossvord tayyorlang.
4. Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunoniston falsafiy maktablarining g'oyalarini o'zaro qiyosiy tahlil qiling va shu asosda mustaqil ish tayyorlang ..
5. "Qadimgi Xitoy falsafasi" mavzusida klasster tuzing.

Adabiyotlar

1. Bikov F.S. Zarojdenie politicheskoy i filosofskoy misli v Kitae. –M., 1966.
2. Drevnee Kitayskaya filosofiya 2 – x tomax. M.: 1972 Sidixmenov V.Ya. Kitay: stranisi proshlogo. –Smolensk: "Rusin", 2000.
3. Istoriya Drevnego mira. Drevniy Vostok. –Minsk-Moskva, 2000.
4. Istoriya filosofii v kratkom izlojenii. –M.: Misl, 1991.
5. Perelomov L.S. Konfusianstvo i legizm v politicheskoy istorii Kitaya. M. 1981.
6. Sidixmenov V.Ya. Kitay: stranisi proshlogo. –Smolensk: "Rusin", 2000.

3-MAVZU

KONFUTSIY VA LAO SZI FALSAFASIDA BORLIQ MASALASI

Reja:

1. **Konfusiychilik muhofazakorona ta'limot.**
2. **Konfusiychilik – qadimgi ajdodlar donishmandligining sharhlovchisi.**
3. **Konfusiychilik adolat haqida.**
4. **Konfusiychilikda "ismlarni tuzatish" g'oyasi.**
5. **Konfusiychilikda tartib tushunchasi.**
6. **Konfusiychilik bilim haqida.**

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda Qadimgi Xitoy falsafasining eng yirik vakillaridan biri bo'lgan Konfusiylar va konfusiychilik ta'limoti, ushbu ta'limotdagi borliq, bilish va ijtimoiy adolatga oid g'oyalar haqida tushunchalar hosil qilish, shuningdek, talabalarda konfusiychilik ta'limotining axloqiy g'oyalarini falsafiy mushohada qilish va amaliy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Konfusiylar, Kun Fu szi (muallim Kun), konfusiychilik, muhofazakorona ta'limot, ijtimoiy me'yor, inson tarbiyasi, mumtoz kitoblar (szin), donishmandlik sharhlovchisi, "Suhbatlar va hukmlar" (Lun yuy) kitobi, Yao, Shun va Yuy, adolat, Osmonga sig'inish, "Shu-szin" kitobi, ismlar, rasm-rusumlar, musiqa, birodarlik olijanoblighi (syao ti), oliyanob er (szyun szi), axloqiy kuchga (de), bilim (chji).

Konfusiychilik muhofazakorona ta'limot

Konfusiychilik yagona, bir butun ta'limot emas edi. U muayyan jamiyat tashkilotining nazariyasi sifatida axloqiy qoidalar, ijtimoiy me'yorlar va boshqaruvni takomillashtirishga diqqat-e'tibor bergan va bu sohada muhofazakorona mavqeda turgan g'oya edi (1-ilova). Konfusiylar o'zi haqida: "eskini bayon etaman va yangini barpo etmayman" degan edi. U va uning izdoshlari jamiyatning axloqiy tanazzulidan xavotirlanib, inson tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratib, jamiyatda bir-birini kechirish muhitni barqaror etishga harakat qildilar.

Konfusiylar (er. ol. 551-479 yy.) ning haqiqiy ismi Kun Fu szi (muallim Kun) bo'lib, lotincha yozilishda Konfusiylar sifatida qayd etilgan. Bu mutafakkir (oldingi ismi Kun-syu) Xitoyning birinchi faylasufi hisoblangan. Konfusiylar bir necha yillar davomida Sharqiy Xitoy davlatlari bo'ylab sayohatga chiqqan va hayotining oxirgi yillarini shogirdlar tarbiyasiga qaratib, ba'zi mumtoz kitoblarni (szin) tartibga solgan. U ta'limoti Sin sulolasi hukmronligi davrida ta'qiqlangan ko'pgina faylasuflardan biri edi. Xan sulolasi davrida Konfusiylar katta e'tibor qozonib, ilohiylashtirish darajasiga borib yetgan va yangi davrgacha hurmatli donishmand sifatida taqdirlangan.

Konfusiylar – qadimgi ajdodlar donishmandligining sharhlovchisi

Konfusiylarning fikrlari o'z shogirdlari bilan qilgan suhbatlari tarzida saqlanib kolgan. Uning suhbatlari mazmuni o'z ifodasini topgan "Suhbatlar va hukmlar" (Lun yuy) kitobi eng ishonchli manbadir; Konfusiylar o'zini qadimgi ajdodlar donishmandligining saqlovchisi va sharhlovchisi sifatida tanitgan. U

o'z zamondoshlarini Qadimgi Xitoyning afsonaviy hukmdorlari bo'lgan Yao, Shun va Yuylardan o'rnak olishga chaqirgan. Ularning xayrli ishlari haqidagi hikoyalar avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan edi.

Ijtimoiy burchga sodiqlik va xolislik bilan nom chiqargan hukmdor Yao xalqni ma'rifatli qilgan, barchaga mehr bilan qarab, fuqarolik va qonunchilikni joriy etgan. Uning hukmronligi davrida uylarning eshigi qulflanmagan, yuqolgan narsalar esa, egalariga qaytarilgan.

Yao tomi qamish bilan yopilgan kulbada yashagan. Uning taomi yovvoyi o'tlar va gurunch butkasi bulgan. Kiyimi nihoyatda oddiy bo'lgan. Kulolchilik idishlaridan ovqat yegan. Agar mamlakatda kimdir och qolgan bo'lsa, Yao albatta shunday degan: "Uning och bo'lishiga men aybdorman". Agar mamlakatda kimningdir kiyimi bo'lmasa, Yao albatta yana shunday degan: "Uning kiyimi yo'qligiga men aybdorman!" Agar mamlakatda kimdir jinoyat qilgan bo'lsa, Yao albatta shunday degan: "Men uni jinoyat qilishgacha olib bordim". U barcha uchun ma'suliyatni o'z bo'yniga olgan. Mamlakatni ko'p yil boshqargan Yao, qarib qolganda hokimiyatni o'g'liga qoldirishni istamagan. Chunki uning o'g'lining boshqarish iste'dodi yo'q bo'lganligidan, Yao o'zidan keyin xalqni qiynalishini istamagan. Shuning uchun salohiyatli kishilarni atrofiga to'plab, ulardan eng aqllisiga taxtni topshirmoqchi bo'lgan. Shunday odam Shun bo'lib chiqqan. U yoshligidayoq ota-onasiga zo'r hurmati bilan mashhur bo'lgan, dehqonchilik, baliqchilik va kulolchilikni o'rgangan.

Shun Yaoga o'xshab bir necha o'n yillar podsholik qilgan va juda ko'p xayrli ishlari bilan dong chiqargan. Keyin u ham, Yaoga o'xshab, ashula va raqslar bilangina ovora bo'lgan o'z o'g'liga taxtni qoldirmagan, balki iste'dodli va adolatli Yuyga hokimiyatni topshirgan.

Yuy o'z hukmronligi davrida misli ko'rilmagan suv toshqinini bartaraf etgan. Toshqinga qarshi kurashda u o'z qo'liga savat va belkurak olib ishtirok etgan. Shamol va yomg'irga qaramasdan toshkinga karshi uzi oldinda borib, butun xalkni uz ketidan safarbar etgan. U daryolar uzanini tozalagan, yangi okuv yullarini ochgan.

Konfusiylar o'z tashviqotlarida yuqoridagi afsonaviy hukmdorlar faoliyatidan o'rnak olishga chaqirgan. O'zi to'g'risida u shunday degan: "Men sharhlayman, ammo yaratmayman". Men qadimgi davrlarga ishonaman va uni sevaman". Va yana boshqa joyda: "Mening ta'limotim, qadimgilarning bizga qoldirgan va dars bergan ta'limotlaridan o'zga narsa emas. Bu ta'limotga men hech narsa qo'shmasdan va hech narsani olib qolmasdan, avvalgidek, sof holicha yetkazayapman. Bu ta'limot o'zgarmasdir, osmonning o'zi uning ijodkoridir. Men o'zim yerga urug' sepadigan va sug'oradigan dehkonga

o‘xshayman, ammo u o‘z-o‘zicha sepilgan urug‘ni ko‘kartirib chiqaradigan va o‘simlikning boshqa turi shakliga aylantira oladigan kuchga ega emas”.

Konfusiylar adolat haqida

Yer yuzidagi adolatsizlikni tugatish uchun nima qilmoq kerak? degan savolga Konfusiylar kishilarni ahloqiy tarbiyalash yuli bilan deb javob bergan.

Osmonga sig‘inish konfusiylilikda muhim o‘rin tutgan. Osmon muayyan maqsadga yunaltilgan oliy kuch sifatida talqin etilgan. U barcha aholining taqdirini belgilaydi. Osmon ulug‘vor qudratga ega bo‘lgan kuch bo‘lib, aql va oliy adolat ramzidir. Ammo osmon hukmini yerda ijro qilishga kim loyiq? Osmonning yerdagi shunday “vakili” hukmdor shaxsidir. Bu haqda konfusiylilikning “Shu-szin” kitobida shunday deyiladi: “Osmon, odamlarga hayot bag‘ishlash bilan birga, ularga ehtirosalar ham beradi. Agar odamlar boshqaruvchisiz qolishsa, unda bosh-boshdoqliklar kelib chiqishi mumkin, shuning uchun osmon oliy aql egasi bo‘lgan insonni yaratdiki, lozim bo‘lgan vaqtda hukmdor bo‘lishga qodir”. Shunday qilib, Konfusiylar va uning izdoshlari hukmdorning hokimiyatini ilohiylashtirdilar. U nafaqat osmonning yerdagi “vakil”, balki insonlar dunyosi bilan ruhlar va ilohiy kuchlar o‘rtasidagi vositachi hamdir.

Konfusiylar “ismlarni tuzatish” g‘oyasi

Konfusiylar “ismlarni tuzatish” (chjen min) g‘oyasini oldinga surgan edi. Tuzatish yoki to‘g‘irlash tushunchasining mohiyati quyidagilardan iborat edi: har bir kishi jamiyatda o‘ziga ajratilgan muayyan joyni egallashi va shunga muvofiq o‘z xatti-harakatini o‘lchashi lozim, ya‘ni jamiyatda o‘z “maqom”i ga ega bo‘lishi yo hukmdor yoki shoh, katta lavozimdagi mansabdor yoki o‘rtacha lavozimdagi xodim, yoki oddiy fuqaro bo‘lishi zarur. “Olijanob er, - deb yozgan edi u, - o‘zi bilmagan narsaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lmog‘i lozim. Agar ismlar noto‘g‘ri bo‘lsa, aytilgan so‘zlar asosli bo‘lmaydi. Agar aytilgan so‘zlar asosli bo‘lmasa, u vaqtda ishlar bajarilmaydi. Agar ishlar amalga oshmasa, rasm-rusumlar va musiqa ravnaq topmaydi. Agar rasm-rusumlar va musiqa ravnaq topmasa, jazolash yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Agar jazolash yetarli darajada qo‘llanilmasa, xalq nima qilishini bilmay qoladi”.

Konfusiylar tartib tushunchasi

G‘arbiy Chjou sulolasi davridagi muayyan me‘yorlar, munosabatlar, harakatlar, huquq va burchlarni ifodalovchi tartib tushunchasining (li) ilk ma‘nosini Konfusiylar namunaviy g‘oya sifatida tavsifiya etadi. Uning fikricha, tartib insonning tabiatga, jumladan, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarida

namoyon boʻladigan umumiy orzudagi istak tufayli oʻrnatiladi. Tartib (li) tashqi xatti-harakatni, yaʼni etiketni ham oʻz ichiga oluvchi axloqiy tushuncha sifatida namoyon boʻladi. Tartibga asliy kelib chiqish jihatdan rioya etish burch majburiyatlarini maqsadga muvofiq ravishda bajarishga olib keladi. “Agar oliyjanob er (szyun szi) aniq ish tutuvchi va vaqtni bekorga sarflamaydigan boʻlsa, basharti u boshqalarga nisbatan hurmat bilan muomala qiladigan va tartibga rioya etuvchi boʻlsa, unda toʻrt dengiz orasida yashovchi kishilar unga birodar boʻladilar”. Tartib (li) xayrli ish (de) bilan toʻldiriladi: “Szichan haqida gapirgan muallim, uning oliyjanob er kishiga taalluqli toʻrt xayrli ishini taʼkidlab oʻtgan. Xususiyl xatti-harakatida u muloyim, xizmatda-aniiq ish tutuvchi, insonparvar va odamlarga nisbatan adolatli”. Konfusiiy fikricha, oʻz vazifalarini ana shunday tartibga binoan bajarish zaruriyl ravishda odamgarchilikning (jen) namoyon boʻlishiga olib keladi. Odamgarchilik – insonga nisbatan qoʻyiladigan barcha talablarning asosidir. Insonning yashash tarzi shunchalik ijtimoiydirki, u uni boshqarib turuvchi quyidagilarsiz yashay olmaydi: a) oʻzing nimaga erishmoqchi boʻlsang, boshqalarga ham shunga erishishga yordam ber; b) oʻzing xohlamagan narsani, boshqalarga ham ravo koʻrma.

Odamlar oilaviyl sharoitga bogʻlik ravishda, keyin esa, ijtimoiyl holatlarga nisbatan bir-birlaridan farqlanadilar. Oilaviyl otasolorlik (patriarxal) munosabatlaridan Konfusiiy oʻgʻillik va birodarlik oliiijanobligi (syao ti) asosiiy qoidasini keltirib chiqaradi. Ijtimoiyl munosabatlarga oilaviyl munosabatlar tengdirlar. Fuqaroning hokimga, boshliqning oʻz qoʻl ostidagi xizmatchiga boʻlgan munosabati oʻgʻilning otaga va ukaning akaga boʻlgan munosabati kabidir. Xizmat yuzasidan boshliqqa nisbatan boʻlgan muomala tartibiga rioya etish uchun Konfusiiy adolatlilik va ijrochilikning asosiiy qoidalarini (i) ishlab chiqdi. Adolatlilik va ijrochilik haqiqatni borliq sifatida tushunishga bogʻliq boʻlmaganligi tufayli, Konfusiiy bu masala bilan maxsus shugʻullanmaydi. Inson tartib va uning holati taqozo etgandek, xatti-harakat etmogʻi lozim. Toʻgʻri ijrochilik xatti-harakati – bu shunday odobki, unda tartib va odamgarchilikka qatiiy ravishda rioya qilinadi, negaki, “oliiyjanob er qaysi narsa yaxshi ijrochilikka kirishini, xuddi kichik lavozimdagi odamlar nima foydaligini bilganidek, uning farqiga boradilar”.

Konfusiiy aqidasiicha, maʼlumotli kishilarning yoʻli (dao) shunday boʻlib, ular axloqiiy kuchga (de) egadirlar va shuning uchun ham jamiyatni boshqarish ularga ishonib topshirilishi kerak.

Konfusiiy bilim haqida

Konfusiyning axloqiy-siyosiy ta'limoti qandaydir nazariy bilish asosiga tayanmaydi. Bilim (chji) va uning kelib chiqish masalasini Konfusiylar qadimgi kitoblarni o'rganish va qadimgi ajdodlar tajribasidan iqtibos qilishganda, deb bildi. Uningcha, bilimning asosiy manbasi o'qishdir va uning manbasi esa, qadimgi rivoyatlar va solnomalardir. Shuning uchun konfusiychilikka jamiyat taraqqiyotidagi ilgari va yangi tajribagatanqidiy munosabatda bo'lib, ulardan xulosalar chiqarish yot edi. Tabiatshunoslik fanlariga umuman e'tibor berilmagan edi. Har qanday yangi hodisaeskiga tajriba nuqtai nazaridan baholanar va o'tmishga borib taqalar edi. Masalaning bunday qo'yilishi Xitoy o'tmishini ideallashtirishga olib keldi. Konfusiychilik ta'limoti muhofazakorona fikrlar tayanchiga aylandi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Konfusiylar kim bo'lgan?
2. Konfusiychilik ta'limotining yetakchi g'oyasi nima edi?
3. Yao, Shun va Yuylardek afsonaviy hukmdorlar Markaziy Osiyo tafakkuri tarixida ham mavjud bo'lganmi?
4. Konfusiychilikning asosiy shiori nima edi?
5. Konfusiylar ko'ra, adolatsizlikni tugatmoq uchun nima qilmoq kerak?
6. "Ismlarni tuzatish" g'oyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Konfusiylar o'zining bilish to'g'risidagi qarashlarida nimaga asoslanadi?
8. Konfusiychilik ta'limoti hozirgi kunda Xitoy ma'naviy hayotida qanday ahamiyat kasb etmoqda?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. "Konfusiychilik ta'limoti va uning Xitoy ma'naviy hayotida tutgan o'rni" mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Mavzu yuzasidan 10ta test, 15ta blits-savol va glossariy tayyorlang.
4. Konfusiylar va Arastularning axloqiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilib, shu asosda mustaqil ish tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Veber M. Xozhaystvennaya etika mirovix religiy. M., 1985.
2. Mifi narodov mira. T. 1-2. M., 1968.
3. Konfusiylar. Lun Yuy. Perevod Yu. Krivsova. V kn. Drevnekitayskaya filosofiya. M., 1972.
4. Istoriya filosofii. T. 1-2. M., 1957

5. Filosofskaya ensiklopediya. T.3.M., 1964
6. Istoriya filosofii v kratkom izlozenii. M., “Misl”, 1991.
7. Yaspers K. Istoki istorii i yeyo sel. Yaspers. Smisl i naznachenie istorii. M., 1994.
8. Trofimova Z.P. Gumanizm, religiya i svobodomislie. M., 1993.
9. Sobranie tekstov. V dvux tomax, M., 1972-1973. T.1.

4-MAVZU

MO-SZI FALSAFASIDA BORLIQ MASALASI

Reja:

- 1. Moizmning Konfusiychilik ta’limotiga tubdan qarama-qarshiligi.**
- 2. Mo-szi ta’limotida umumiy muhabbat qoidasi.**
- 3. Mo-szi haqiqat haqida.**
- 4. Moizm bilim haqida.**
- 5. Mo-szining mantiqiy ta’limoti.**

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda qadimgi xitoy faylasufi Mo-szi va u asos solgan moistchilar maktabining konfusiychilikka qarama-qarshi g‘oyalari, umumiy muhabbat qoidasi, haqiqat, bilish va mantiqqa oid qarashlari to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish, shuningdek, ularda Mo-szi ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlarini falsafiy mushohada qilish, nazariy va amaliy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Mo-szi, Mo Di, ijtimoiy axloq, jismoniy mehnat, umumiy muhabbat, umumiy me‘yor, nazariy tadqiqotlar, foydasiz hasham, amaliy maqsad, samoviy iroda, musiqa (yue), urf-odatlar (li), iste’dodni hurmat qilish, o‘zaro ehtirom, iqtisod, hujum qilmaslik, bosh-boshdoqlik, samimiy iroda, taqdirga ishonish, sabab, jins, haqiqat, tug‘ma bilim, his-tuyg‘u ob’ekti, shaxsiy tajriba, mantiq, hukm, deduktiv metod, induktiv, metod, Xuey Shi, Gunsun Lun, riyoziyot, ilmiy tabiatshunoelik, texnika muhandisligi.

Moizmning Konfusiychilik ta'limotiga tubdan qarama-qarshiligi

Moistchilar maktabi o'z nomini uning asoschisi Mo-szi (Mo Di) (er.ol.479-391 yillar) dan olgan. Unda asosiy e'tibor ijtimoiy axloq muammolariga qaratilgan edi. Ijtimoiy axloqning amalga oshirilishi istibdodiy hokimiyat boshlig'i tuzgan jiddiy tashkilot bilan bog'liq edi. Bu maktabda jismoniy mehnat uning o'quvchilarining asosiy ozuqasini vujudga keltirishligi ta'kidlangan. Moistchilarning ta'limoti Konfusiy ta'limotiga tubdan qarama-qarshi edi. Uning barcha mazmuni umumiy muhabbat (szyan ai), har sohada muvaffaqiyatlarga erishish, o'zaro foyda g'oyalarida ifodalangan. Jamiyatda barcha kishilar uchun majburiy bo'lgan o'zaro odamgarchilikning umumii me'yori bo'lishi lozim va hamma bir-birlarining o'zaro foydasi haqida g'amxo'rlik qilishi zarur.

Bu ta'limotga ko'ra, nazariy tadqiqotlar – foydasiz hashamdir; mehnat faoliyatida belgilangan amaliy maqsadga muvofiqlik – zaruriyatdir. Mo Di o'zining aqidalarini barqaror etishga ta'sir ko'rsatadigan samoviy irodani tan olgan.

Moistchilar aqidasi eramizdan oldingi V-Sh asrlarda Xitoyda katta ta'sirga ega bo'lgan edi. Bizning kunlargacha bu ta'limotning yagona yodgorligi sifatida “Mo-szi” risolasi yetib kelgan.

Bu falsafiy-siyosiy risola ta'limot asoschisi Mo Dining qarashlaridan tashqari, uning keyingi maslakdoshlari g'oyalarini ham ifodalagan.

Mo-szi o'rta tabaqadan kelib chiqqan bo'lib, uning mafkurasini ifodalagan shaxs edi. Boshida asosan xalqni musiqa (yue) va urf-odatlar (li) vositasida tarbiyalash haqidagi ta'limotni tanqid qilish bilan chiqqan edi. (“Mo-szi” risolasining Fey ju bobi). Keyinchalik konfusiychilikning axloqiy-siyosiy tizimini tanqid qilgan.

Tanqid asosida Mo-szi ishlab chiqqan shansyan qoidasi (iste'dodlarni hurmat qilish), shantun (o'zaro ehtirom), szeyun (iqtisod), feygung (hujum qilmaslik) va szyanoy (umumiy muhabbat) yotgan edi. Mo-szi fikricha, hokimiyat kelib chiqishi aslzoda bo'lganlarga emas, balki qobiliyatli va iste'dodli barcha kishilarga ochiq bo'lishi lozim. U aslzodalarning hashamatli hayoti va isrofgarchiligiga (szeyun qoidasi), urushlarga (feygun qoidasi) qarshi chiqdi; “Qo'shni podsholiklarga hujum qilish, xalqni o'ldirish, chorvani bosib olish va boylikni o'g'irlash mumkin emas” (“Mo-szi” risolasi, Lu ven bobi).

Mo-szi ta'limotida umumiy muhabbat qoidasi

Mo-szi tizimida umumiy muhabbat qoidasi asosiy xatti-harakatni belgilar edi. Uning fikricha, barcha ijtimoiy va siyosiy nizolarni ushbu axloqiy

qoida yordamida hal qilish mumkin. Umumiy muhabbat qoidasiga Mo-szi iqtisodiy va siyosiy mazmun ham qo'shgan edi. Zero, uni amalga oshirish zarurligi g'oyasiga "o'zaro foyda" (bir-birini yaxshi ko'rib, biri ikkinchisiga yordam berishi tufayli kishilar iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etishlari mumkin) aqidasini qo'shgan edi. Agar hukmdor bu qoidalarga rioya etib mamlakatni boshqarsa, u vaqtda siyosiy bosh-boshdoqlik ham bo'lmasligi mumkin. Mo-szining ta'kidlashicha, "kimki o'z yaqiniga muhabbat va samimiylilik bilan boqmasa, "samimiy iroda" uni jazolaydi" ("Mo-szi" risolasi, Fa i bobi) (1-ilova).

Inson taqdirini belgilovchi xudo sifatida "samoviy iroda"ni ifodalagan konfusiychilikka qarshi turgan Mo-szi aytishicha, "agar kishilar taqdirga ishonsalar, ular farovonliklari uchun kurashni to'xtatadilar" (o'sha yerda, Fey min bobi).

Mo-szi Xitoy falsafasi tarixida birinchi bo'lib sabab (gu) va jins (ley) tushunchalarini o'rta qo'ydi. Ularni moddiyuncha talqin qilish asosida keyingi uning maslakdoshlari tomonidan bilish nazariyasi va mantiq rivojlantirildi.

Mo-szi haqiqat haqida

Mo-szi haqiqat haqida quyidagilarni aytgan edi:
u shunday narsaki, o'tmish tajribasiga tayanadi (uni tanqidiy o'rganishni talab qildi: qadimgi davrlardan faqat yaxshi narsanigina olish kerak);

- 1) u shunday narsaki, xalq foydasiga muvofiq keladi;
- 2) u shunday narsaki, xalq tushunchasida haqiqatdir (agar xalq "ha, shunday" desa, o'sha haqiqat bo'ladi).

Moizm bilim haqida

Keng tarqalgan "tug'ma bilim" nazariyasiga qarshi chiqib, Mo-szi inson o'z bilimini faqat amaliy faoliyat jarayonida qo'lga kiritadi, degan edi. Uning fikricha, - inson o'z amaliy faoliyatida bilim hosil qilsa-yu, uni hayotda qo'llay olmasa, bunday bilim haqiqiy emasdir.

Mo-szining ta'limoti uzluksiz ravishda konfusiychilik tarafdorlari tomonidan hamlaga duchor bo'ldi. Keyingi davrlarda uning tarafdorlari moizmni moddiyuncha yo'nalishda rivojlantirdilar. Ularning ta'kidlashlaricha, "bilim his-tuyg'u ob'ekti bo'lgan his-tuyg'u a'zolarini mavjudligini taqozo etadi, hamda uning manbalari bo'lgan shaxsiy tajriba, boshqa odamlar aytgan fikrlar xulosasini ham qamrab oladi" ("Mo-szi", szin bo'limi) (2-ilova).

Mo-szining mantiqiy ta'limoti

Moistchilarning keyingi davrdagi asarlarida mantiq katta o‘rin tutdi. Ular hukmning 7 usulini ishlab chiqdilar (“Mo-szi”, syao syuy bo‘limi). Ularning ba’zilari G‘arbiy Ovro‘po olimlari tomonidan ishlab chiqilgan deduktiv va induktiv metodlarga o‘xshaydi.

Moistchilarning mantiqiy asarlarida Xuey Shi va Gunsun Lunning qarashlari rad etilgan edi. Ular riyoziyot (matematika), ilmiy tabiatshunoslik va texnika muhandisligi masalalari bilan ham shug‘ullanishga kirishgan edilar. Ular bilish jarayonining o‘zi bilan ham qiziqishgan. Ularning aqidasicha, “bilish vokeylik bilan hissiy to‘qnashish vositasida yuz beradi hamda his-tuyg‘u orqali qabul qilingan tushunchalarni idrok etish yo‘li bilan hosil kilinadi”.

Eramizdan oldingi II asrda konfusiychilik moizmni orqa planga surishga muvaffaq bo‘ldi va u o‘z ahamiyatini yo‘qotdi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Mo-szi kim bo‘lgan?
2. Mo-szi falsafasining yetakchi g‘oyasi nima edi?
3. Moistlar falsafasining jozibakorligi nimada edi?
4. Nima uchun Mo-szi Konfusiyni tanqid ostiga oldi?
5. Mo-sziga ko‘ra, haqiqat nima?
6. Sizningcha, haqiqat nima?
7. Faylasufning qarashlariga ko‘ra, bilishning manbai nima?
8. Syun-szining falsafiy ta’limotidagi moddiyuncha qarashlar xitoy falsafiy tafakkuri rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Mustaqil ta’lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o‘qing va qisqacha konspekt yozing.
2. “Mo-szining ijtimoiy-axloqiy qarashlari” mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Mavzu yuzasidan 15ta test, 15ta blits-savol va krossvord tayyorlang.
4. Mo-szining va Konfusiylarning qarashlarini qiyosiy tahlil qilib, shu asosda mustaqil ish tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Petrov A.A. Ocherk filosofii Kitaya. V sb.: Kitay, M.-L., 1940.
2. Yan Xin-shun. Teoriya poznaniya moistov. “Voprosi filosofii”, 1956, №1.
3. Yan Yungo. Istoriya drevnekitayskoy ideologii. M., 1957.
4. Istoriya-filosofii. T.1, M., 1957.
5. Aleksandrov G.F. Istoriya sotsiologicheskix ucheniy. Drevniy Vostok.

M., 1959.

6. Istoriya filosofii v kratkom izlozenii. M., 1991.

5-MAVZU

QADIMGI HINDISTONDA FALSAFIY FIKRLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. VEDALAR DAVRI

Reja:

- 1. Braxmanizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi.**
- 2. Vedalarda oriy qabilalarining dunyoqarashi aks ettirilishi.**
- 3. Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo'yilishi.**
- 4. Yevropada vedalarga qiziqish.**

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda qadimgi Hindistondagi eng dastlabki falsafiy tafakkurlarning paydo bo'lishi, braxmanizmning rivojlanishi va vedalarda oriylarning ibtidoiy dunyoqarashi aks etganligi, vedalarning tarkibiy qismi bo'lgan Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Atxarvavedalar, shuningdek, Upanishadlar to'g'risida tasavvur hosil qilish. Hind falsafasini o'rganishda G'arb va Sharq tadqiqotchilarining o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Qadimgi Hindiston, braxmanizm, vedalar, veda adabiyoti, braxmanlar, Upanishadlar, Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Adxarvaveda, madhiya, alqov, sutra, Shrautasutra, Grxyasutra, Dxarmasutra, Agni, Indra, Mitra, Voruna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam, duolar, G. T. Kolbruk, T. Benfey, A. Veber, D. Uitni, G. Oldenberg, L. Renu, I. Xertel, P. Time.

Braxmanizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Eramizdan avvalgi II minginchi yilning oxirlariga kelib, temir qurollarning tarqalishi natijasida Gang vohasida yashovchi xalqlar dehqonchilik bilan shug'ullana boshlashgan. Ular o'rmonlarni kesib, botqoqlik yerlarni qurita boshlashdi. Ko'chmanchi chorvadorlar uchun ovchilikka nisbatan o'troqlashgan

dehqonchilik ustun turar edi. Gang vohasida yashovchilarning iqtisodiy hayotlarining asosini dehqonchilik tashkil etardi.

Eramizdan avvalgi II minginchi yilning oxiri va I minginchi yillarning boshida jamiyatda tashkil topayotgan mafkuraviy hayotda buyuk o'zgarishlar yuz bera boshladi. Keyinchalik hind jamiyatida o'z ijtimoiy vazifalariga binoan teng huquqli kishilar to'rt guruhga yoki varnalarga bo'lina boshlandi, ya'ni *Braxmanlar* (davlat rahbarlari va donishmandlar), *Kshatriylar* (harbiylar), *Vayshyalar* (noz-ne'matlarni yaratuvchi kishilar) va *Shudralar* (jamiyatdagi eng og'ir va iflos ishlarni bajaruvchilar) (1-ilova). Bu tabaqalar bir-birlaridan ijtimoiy mavqelari, haq-huquqlari va bajaradigan ishlari bilan farqlanadilar.

Hindistonda bu davrda *Braxmanizm* yetakchi dinga aylangan edi. Dunyoda birdan bir reallik (mavjudlik) bu *Braxma*, ya'ni Braxma xudosidir. U birdan bir real dunyoviy ruh, shaxssiz, sifatsiz ilohiy substansiya, hayot manbai, barcha borliqning asosidir. Braxmanizm dinida "*Karma*" haqida ta'limot yaratildi. Bu ta'limotga asosan jon bir tanadan ikkinchi tanaga o'tib yurishi ta'kidlangan. Karma qonuniga binoan inson foni dunyoda qilgan xatti-harakatlari uchun narigi dunyoda javob beradi.

Braxmanizmda Braxma xudosi – olamni yaratuvchi bo'lib, unga qurbonlik keltirishni buyurgan. Braxmanlar o'zlarini odamlar orasida eng yaxshilari deb, *inson qiyofasidagi xudolar*, deb bilib, jamiyat fuqarolari esa, ularga bo'ysunishlari shart deganlar. Braxmanizm dini keyinchalik Hindiston bo'ylab yoyildi. Ilk O'rta asrlarga kelib, Hindistonda yangi din – *hinduizm* shakllanib, u butun Hindiston bo'ylab yoyildi.²

Vedalarda oriylar qabilalarining dunyoqarashi aks ettirilishi

Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta'limot beruvchi birinchi manba Vedalardir. *Veda* so'zining sanskrit tilidagi lug'aviy ma'nosi "*bilim*" deganidir.³ Vedalar kitobi diniy mazmunda bo'lsa ham, iqtisodiy yuksalish va jamiyatning tarkibi, dunyo to'g'risidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Vedalarda oriylarning ibtidoiy dunyoqarashi aks etgan.

Veda adabiyotining ikkinchi qatlami braxmanlar bo'lib, unda dunyoning paydo bo'lishi va hamma narsaning asosida birinchi ibtido sifatida suv turishi haqidagi rivoyatlar uchraydi. Braxmanlarda mukammal diniy-falsafiy tizim bo'lmasa ham, keyinchalik Upanishadlarda asosiy mavzu bo'lgan ba'zi tushunchalar birinchi marta ifodalangan.

Vedalar eramizdan oldingi II mingyillik oxiri va I mingyillikning birinchi

² Ахмедова М., Йўлдошев С., Шоматов О.: Ҳинд фалсафаси. Тошкент давлат шарқшунослик институти. 2006 й. 5-бет.

³ Ўша асар. 6-бет.

yarmida paydo bo'lgan qadimgi hind (veda) tilida yozilgan. Vedalarning eng qadimgi qismi to'rtta yirik hajm dagi madhiya, duolar va alqovlardan iborat bo'lib Rigveda, Samaveda, Yadjurveda, Atxarvaveda deb atalgan (2-ilova). Rigveda 1028 madhiyani o'z ichiga olgan bo'lib, matnlarni sakkiz qismga, ya'ni ashtakaga bo'lingan. Rigvedada asosiy o'rinni yuksak badiiy ifodalardagi qofiyalarda bayon qilingan Agni, Indra, Mitra, Varuna, Soma, Ushas, Ashvinam, Marutam va boshqa xudolarga murojaat, tabiatning turli tomonlarini o'zida mujassamlashtiruvchi kuchlarni maqtash yotadi.

Upanishadlarda falsafiy muammolarning qo'yilishi

Vedalar bilan aloqasi borligiga qaramasdan Upanishadlarga mohiyatan falsafiy va diniy fikrlar rivojiga yangi yo'nalish berib, keyingi vujudga keladigan tizimlarga asos bo'lgan. Agar Upanishadlarda asosiy e'tibor falsafiy muammolarga qaratilgan bo'lsa, Vedalar bilan bog'liq sutralar (Shtrautasutra, Prxyasutra, Dxarmasutra) avvalo diniy marosimlarga va qisman huquq muammolariga (Dxarmasutra) bag'ishlangan.

Qadimgi Hindiston falsafasi, dini va madaniyati tarixini o'rganish bo'yicha birinchi darajali ahamiyat kasb etgan Vedalarni o'rganishga qiziqish zo'r bo'lib, bu sohada Hindistonni o'zida 25 asrlik an'ana mavjud. Rigvedaning mashhur sharhchilari Panini, Shankara, Sayanilardir.

Yevropada vedalarga qiziqish

Ma'lumki, Sharq azaldan o'zining jozibasi bilan dunyo xalqlarini qiziqitirib kelgan. Xususan, hind madaniyati va falsafasi ham doimo tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmagan. Shunday tadqiqotlarning aksariyati G'arbiy Yevropa mamlakatlari olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Yevropada Vedalarga qiziqish XIX asr boshida paydo bo'lgan (Angliyada G.T.Kolbruk, keyinchalik R.Rot, T.Benfey, T.Aufrext), A.Veber (Germaniya), M.Myuller (Angliya), D.Uitni (Amerika). XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan yirik olimlar G.Grasman, G.Oldenberg, A.Xillebrand, R.Pishel, K.Geldner, A.Lyudvig (Germaniya), A.Bergen (Fransiya), M.Baumfild (Amerika), A.Kit, A.Makdonell (Angliya), oxirgi o'n yilliklarda esa, L.Renu (Fransiya), I.Xertel, G.Ertel, G.Lyuders, P.Time (Germaniya) va boshqalar Vedalarni o'rganishga muhim hissa qo'shganlar.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Qadimgi hind jamiyatida qanday ijtimoiy qatlamlar mavjud edi?
2. Braxmanizm ta'limotiga ko'ra, olamning asosi nima edi?

3. Braxmanlar o'zlariga qanday ta'rif berganlar?
4. Veda so'zining ma'nosi nima?
5. Vedalarda nimalar haqida so'z boradi?
6. Upanishadlarning vedalardan farqi nimada?
7. Qadimgi hind falsafasi, tarixi va madaniyatini o'rganish bo'yicha eng muhim manba nima?
8. Hind falsafasini o'rganish bo'yicha qanday tadqiqotlarni bilasiz?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. "Vedalar falsafasi" bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Mavzu yuzasidan 20 ta test, 10 ta blis-savol va 8-10 so'zli krossvord tuzing.
4. Qadimgi hind falsafasini yunon falsafiy ta'limotlariga ta'sir qilgan jihatlarini topishga harakat qilib ko'ring va shu mavzuda mustaqil ish tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Fortunatov F. Samaveda – Aranyaka Samhita. Issledovanie. –M., 1875.
2. Ragozina Z. A. Istoriya Indii vremen Rig-Vedi. –SPb, 1905.
3. Vosem gimnov Rig-Vedi. Per. N. V. Krushevskogo. –Kazan, 1879.
4. Larin B. Iz oblasti vediyskoy poezii. //Vostok, 1924. –№4.
5. Filosofskaya ensiklopediya. –M., 1960.

6-MAVZU

QADIMGI HIND FALSAFASI MAKTALARIDA BORLIQ MASALASINING QO'YILISHI

UPANISHADLARDA FALSAFIY QARASHLAR

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda Qadimgi hind falsafasining muhim manbalaridan biri bo'lgan upanishadlar to'g'risida tushunchalar hosil qilish, ularda upanishadlardagi borliq, koinot, inson va hayot charxi haqidagi g'oyalarni falsafiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Upanishadlar, vedalar, Qadimgi Hindiston, Brixadaranyaka, Chxandogya, Taittiriya, Aytareya, Kaushitaki, Rigveda, Kena, Katxa, Isha, Shvetashvatara,

Mundaka, Maxanarayana, Prashna, maytri, Mandukya, Atxarvaveda, montoistik g'oya, Purusha, braxmat, atman, sankhya, yoga, mimansa, Bxagavatgita, hayot charxi, Braxmasutra, Shankara, Ramanudji, Ram Mohan Ray, Gandi, Anketil, Dyuperron, Shopengauer.

Upanishadlar Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi ekanligi

Upanishadlar (haqiqatni bilish maqsadida o'qituvchi oldida o'tirish) Vedalarning to'rttasidan birida an'anaviy tarzda qo'shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiy-diniy asarlar turkumi bo'lib, Veda adabiyotining yakuniy qismi – vedantani ("vedalar xotimasi") tashkil etadi. Odatda Upanishadlarga 108 asar taalluqli (hammasi bo'lib ularning 200 tasi ma'lum) ekanligi aniqlangan. Upanishadlarning eng qadimgisi eramizdan oldingi VI-III asrlarda vujudga kelgan. Upanishadlar keyingi davrlarda ham, hatto XIV- XV asrlargacha paydo bo'lishda davom etganlar.

Upanishadlarning eng qadimgi qatlamlari Brixadaranyaka, Chxandogya, Taittiriya, Aytareya, Kaushitaka (keyingi ikkitasi Rigvedaga borib taqaladi) va Kena bo'lib, ushbu asarlar Upanishadlarning eng qiziq va obro'li qismini tashkil etadilar. Ulardan biri keyinroq yozilgan Katxa, Isha, Shvetashvatara, Mundaka, Maxanarayana qofiyadosh shakldadirlar. Prashna, Maytri va Mandukya keyinchalik yaratilgan guruhni tashkil etadilar. Atxarvavedaga ko'proq taalluqli deb topilgan Upanishadlarning qismi zamon jihatdan oxirgisi bo'lib, eng kengrog'i ham hisoblanadi.

Borliqning yagonaligi haqida Upanishadlarda yangicha talqin

Vedalar davriga taalluqli bo'lgan ko'plab muhim mavzu va g'oyalar (koinotga tegishli bir qator tasavvurlar, butun borliqning yagonaligi haqidagi g'oyalar) Upanishadlarda yangicha talqin etilgan. Ilk davrda yozilgan Upanishadlar vedalar dinini qabul qilib, uning montoistik g'oyalarini alohida ta'kidlab o'tgan.

Upanishadlar Hindiston tarixida birinchi marta qo'yilgan falsafiy muammolarning manbasi ekanligi: "biz qaerdan kelib chiqqanmiz, biz qaerda yashayapmiz va qaysi tomonga qarab harakat qilyapmiz..., kimning hukmiga binoan biz gohida azob-uqubatda, ba'zida esa, rohat-farog'atda mavjudmiz? Bunga zamon sababmi yoki tabiatmi, yoki zaruriyatmi, tasodifmi, yoki unsurlarmi, yoki bo'lmasa Oliy Ruhni o'zida mujassamlashtirgan Purusha, deb atalgan odammi?" (Shvetashvatara-Upanishadlar). Bu kabi savollardan eng muhimi dunyoviy ruhning tabiati haqida bo'lib, unga muvofiq Upanishadlar falsafasining ikkita asosiy tushunchasi – braxman va atman kelib chiqqan.

Braxman – muayyan biror narsaga ega bo‘lmagan mutlaq ibtido bo‘lib, butun Koinotni to‘ldiradi va undagi bor narsani vujudga keltiruvchi oliy ob’ektiv borliqdir. Atman hamma narsa ichiga kira oluvchi sub’ektiv voqelik sifatida o‘zini namoyon etadi: u – “katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong‘iliksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta‘msiz, ko‘zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning ”oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo‘q... (Brixadaranyaka - Upanishadlar).

Hayot charxi haqidagi ta‘limot

Upanishadlarning eng muhim qismi hayot charxi to‘g‘risidagi ta‘limot (sansara) va u bilan mustahkam bog‘langan qilmishiga yarasha mukofotlash qonuni bo‘lgan karmadir. Hayot charxi to‘g‘risidagi ta‘limotga ko‘ra, inson hayoti uzluksiz qayta tug‘ilish zanjirining muayyan shakli sifatida tushuniladi. Hayot charxi abadiy bo‘lib, dunyodagi barcha narsalar unga bo‘ysunadi. Upanishadlar Hindistondagi keyingi tafakkur taraqqiyotiga katta ta‘sir o‘tqazgan. Upanishadlarning Bxagavatgitaga o‘tqazgan ta‘siri hammaga ma‘lumdir. Upanishadlar falsafasining ko‘p jihatlari sankhya va yoga, qisman mimansa yo‘nalishlari bilan umumiyliги borligi qayd etilgan. Upanishadlarning g‘oyalari Braxma-sutrada, keyinchalik Shankara Ramanudji va vedantaning boshqa mashhur faylasuflari tomonidan to‘planib sharxlangan. Upanishadlarning ta‘siri Ram Mohan Ray, Gandi va boshqalarning dunyoqarashlarida namoyon bo‘lgan.

Yevropada Upanishadlar bilan XIX asrning boshlarida Anketil, Dyuperron tarjimalari orqali forsha qayta ishlanganligi tufayli tanishganlar. Upanishadlarning g‘oyalari Yevropa falsafasiga, ayniqsa Shopengauer va XX asr boshidagi rus faylasuflari qarashlariga sezilarli ta‘sir o‘tqazganligi ta‘kidlangan.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Upanishad so‘zining ma‘nosi nima?
2. Upanishadlarning eng qadimgisi qachon vujudga keldi?
3. Nima uchun Upanishadlarni falsafiy manba sifatida o‘rganamiz?
4. Purusha nima?
5. Upanishadlar falsafasining ikkita asosiy tushunchasi nimalar edi?
6. Karma qonuni, deganda nimani tushunasiz?
7. Upanishadlarning hayot charxi haqidagi ta‘limotiga qanday munosabat bildirasiz?
8. Upanishadlar falsafasi keyinchalik qaysi faylasuflar ta‘limotlariga ta‘sir ko‘rsatgan?

Mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o'qing va qisqacha konspekt yozing.
2. "Upanishadlarda falsafiy qarashlar" bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Upanishadlar va G'arb faylasuflari ta'limotlarini qiyosiy tahlil qiling, ulardagi umumiy va farqli jihatlarini topib shu asosda mustaqil ish tayyorlang.
4. Qadimgi hind falsafasini yunon falsafiy ta'limotlariga ta'sir qilgan jihatlarini topishga harakat qilib ko'ring va shu mavzuda mustaqil ish tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Radhakrishnan S. Indiyaskaya filosofiya. Per. s angl. T. 1. –M., 1956.
2. Sirkin A. Ya. O nekotorykh zakonomernostyax v soderzhanii rannix Upanishad. V Sb.: Indiya v drevnosti. –M., 1964.
3. Sirkin A. Ya. Sistema otojdestvleniy v Chxandogya Upanishad. "Uch. zap. Tartuskogo gos. un-ta", 1965.
4. Filosofskaya ensiklopediya. T. 5. –M., 1970.

7-MAVZU:

QADIMGI HIND MUMTOZ FALSAFASIDA BORLIQ MASALASI

Reja:

1. Qadimgi Hindiston falsafasida moddiyunchilik tamoyillari.
2. Hinduviylik falsafiy asosining olti tizimi.
3. Prakritining dunyoviy mohiyatlarga aylanishi.

Mavzuning o'quv maqsadi

Talabalarda qadimgi hind falsafiy tafakkuri tarixidagi moddiyunchilikka asoslangan falsafiy maktablar to'g'risida tushuncha hosil qilish, ularda ushbu maktablardagi olam va odam muammolariga oid moddiyuncha ta'limotlarni falsafiy mushohada qilish va ob'ektiv xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Lokayata, chorvaklar, Yoga, Vaysheshika, Nyaya, Mimansa, Vedanta,

Sankhya, Brixaspati, “Ramayana”, atman, kasta, kohin, meditatsiya, Patanjala, tarkidunyochilik, mukammal, nomukammal, Vaysheshika-sutra, Kanada, “Padartxa-dxarma-sangraxa”, javhar, sifat, harakat, umumiylik, xususiylik, Koinot, atomlar, adrishta, dxarma (axloqiy qonun), prakriti, nozik javhar, moddiy dunyo, oqibat (karya), rajas (intilish), tamas (qorong‘ilik), sattva (aniqlik), purushi (mutlaq ruh), 25 asos, ruhiy mohiyatlar.

Qadimgi Hindiston falsafasida moddiyunchilik tamoyillari

Qadimgi Hindiston falsafasining taraqqiyoti jarayonida moddiyunchilik tamoyillariga asos bo‘lgan falsafiy maktablar ham vujudga kelgan edi. Ana shunday ta’limotlardan biri lokayata (“bu dunyoga yo‘nalish”) bo‘lib, uning asosida chorvaklar ta’limoti yotadi. An’anaga ko‘ra, chorvaklar ta’limotining asoschisi qadimgi hind donishmandi Brixaspati hisoblanadi. “Ramayana” va ilk buddaviylik risolalarida “lokayata” ilohiy bahs yuritish san’ati ma’nosida qo‘llanilgan. V asrdan boshlab, buddaviylik va jaynizmga taalluqli asarlarda ularning mualliflari “lokayata” istilohini xudoning mavjudligi, ruhni (atman) borligi va ruhni ko‘chib yurishi aqidasini inkor etuvchi moddiyuncha ta’limotni ifodalash uchun ishlatganlar.

Lokayatlar yoki chorvaklar e’tiqodiga ko‘ra, inson to‘rt moddiy unsurdan – tuproq, suv, olov, havodan tashkil topgan (1-ilova). Ularning bir-birlari bilan qo‘shilishi natijasida inson tanasi, his-tuyg‘u organlari va ular asosida ruhiy ibtido tashkil topganligi qayd etiladi. Insonda uning o‘limidan keyin hech narsa qolmaydigan bo‘lganligidan, lokayatlar voqe hayotdan foydalanib qolish zaruriyati haqida fikr yuritganlar. Ular moddiy hayot qanday ne’matlar keltirsa, hammasini qabul qilishni, hayotdagi yoqimli va maqbul narsalar zalolat va azob-uqubatlarni muvozanatga keltira olishini yodda tutishni maslahat berganlar.

Chorvaklar mantiqiy usullar yordamida an’anaviy aqidalarni shak va shubha ostiga olganlar. Ular tabaqalarga mutlaq bo‘linganlik (kasta) tizimini, kohinlarning diniy rasm-rusumlarini va muqaddas kitoblarning mo‘tabarligi haqidagi aqidalarni tanqid ostiga olganlar. Ular dunyoviy fanlar bilan shug‘ullanishni, har bir ashyoning nimadan iborat ekanligini aniqlashni tavsiya etganlar. Shuning uchun ham, tabiatshunoslik fanlarini rivojlantirishda chorvaklarning xizmati katta bo‘lgan.

Hinduviylik falsafiy asosining olti tizimi

Eramizning boshida Hindistonning ma’naviy hayotida hinduviylik ta’limoti hal qiluvchi mavqega ega bo‘lgan. Hinduviylikning eng mashhur asari “Bxagavatgita” (“Ilohiy qo‘shiq”) bo‘lib, axloqiy masalalarga bag‘ishlangan. Hinduviylikning falsafiy asosi olti tizimda o‘z ifodasini topgan (2-ilova). Yoga – ruhiy tushunchalarni tekshirishga va amalda ruhiy ta’limotga katta e’tibor bergan.

Yoga amaliyotida sakkiz bosqich mavjud: yama (chek qo'yish), niyama (axloqiy madaniyat), asana (holat), pranayama (nafasni nazorat qilish), pratyaxara (his-tuyg'uni uzoqlashtirish), dxarana (diqqat-e'tibor), dxyana (mushohada qilish) va samadxi (chuqur mulohazaga berilish).

Chek qo'yish biror-bir kishining hayotiga ziyon yetkazishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'rilikdan, zino va hasislikdan o'zini tiyishda ifodalanadi. Axloqiy madaniyat poklik, qoniqishlik, tarki dunyochilik, Vedalarni o'rganish va xudo haqida o'ylash kabi yaxshi odatlar ruhida tarbiyalarni o'z ichiga oladi. Asana – barqaror va qulay holatni ishlab chiqishdir. Nafasni nazorat qilish havo yutish va chiqarish jarayonini boshqarishdan iboratdir. His-tuyg'uni nazorat qilish hissiyotni uning ob'ektidan uzoqlashtirishda ifodalanadi. Diqqat-e'tibor tushunchasi asosiy e'tiborni tirik ob'ektlarning ichki yoki jonsiz narsalardan tashqaridagi ob'ektlarga qaratish bilan belgilanadi, masalan, diqqatni burun uchiga yoki oyga qaratish kabi; mushohada esa, ob'ekt haqida uzluksiz va sobitqadamlik bilan fikrlashdir. Chuqur mulohazaga berilish shunday holatki, unda mushohada qilayotgan ong mushohada yuritilayotgan ob'ektda yo'qolib, o'z-o'zini idrok qila olmay qoladi.

Vaysheshika falsafasining birinchi tizimga solingan asari Vaysheshika-sutradir. Uning muallifi donishmand Kanadadir. Kitobning barcha sutralari (bog'lovchi ip) eramizning I asrida yozilgan. Vaysheshikaga sharh sifatida yozilgan ikkinchi asar Prashastapalaning “Padartxa-dxarma-sangraxa” nomli kitobidir.

Hind falsafasining barcha tizimlaridan ko'ra, qadimgi hindistonliklarning tabiiy-ilmiy tasavvurlariga eng ko'p jihatdan aloqasi yaqini Vaysheshikadir. Vaysheshika-sutra kitob muallifi, deb hisoblanadigan Kanadaning hikmatli so'zlaridan iboratdir. Ba'zi olimlarning fikricha, Vaysheshika-sutrani bir kishi emas, balki bir avlod mutafakkirlari yozgan bo'lib, kitob holiga eramizning I asrida keltirilgan. Asar 10 kitobdan iborat. Birinchi kitobda Koinotni qamrab oluvchi 5 tushuncha – javhar, sifat, harakat, umumiylik va xususiylik qarab chiqilgan. Ikkinchi va uchinchi kitoblarda javharlar ta'rifi berilgan (tuproq, suv, nur, havo, zamon, makon, ruh, aql). To'rtinchi kitobda Koinotning atomlardan tarkib topganligi tasviri berilgan. Beshinchi kitobda mexanik jarayoni sifatida tushunilgan harakat tahqiq qilingan (tepaga otish, pastga tushish, qisqarish, kengayish va bir joydan ikkinchi joyga o'tish) va atomlarga birinchi turtki bergan, ko'rinmas kuch – adrishta tasvirlangan. Oltinchi kitobda axloq muammolari tahqiq qilinib, umumiy axloqiy qonun – “dxarma” o'rganilgan. Yettinchi kitob shaxsiy “men” va o'ziga xoslik, deb atalgan tushunchaga bag'ishlangan. Keyingi to'rt kitobda – bilish nazariyasi masalalari (qabul qilish, xulosa, sababiyat va boshqalar) tahqiq qilingan.

Vaysheshika ta'limotiga ko'ra, dunyoda doimiy o'zgarish, davriy va doimiy jarayonda paydo bo'lish va tanazzul yuz berib turadi. Ammo bu jarayonda muqim unsur bo'lgan atom mavjud. Atomlarning vaqtincha qo'shilishidan, bizning his-tuyg'ularimizga yetib keladigan jonli va jonsiz ashyolar paydo bo'ladi. Qayta tug'ilish bunday sharoitda doimiy ravishda qo'shib va ajrashib turadigan atomlar faoliyatining mahsulidir.

Nyayada asosiy e'tibor mantiq va bilish nazariyasiga qaratilganki, uning muammolarini ishlab chiqish juda ko'p jihatlardan hind mantig'ining cho'qqisi hisoblanadi. Rus hindshunosi F.I.Sherbatskiy (1866-1942) fikricha, Nyaya mantig'i Hindistonning qadimgi davrlaridagi amaliyotida keng qo'llanilgan jamoa ishtirokidagi ochiq bahslarda qo'llanilgan usullarni umumlashtirish jarayonida paydo bo'lgan.

Nyaya bilish nazariyasining asosiy kelib chiqish qoidasi shundaki, bilim ob'ektiv voqelikdangina kelib chiqishi mumkin. Ob'ektiv voqelik biluvchiga bog'liq emas. Nyaya bilimning to'rt manbai yoki ishonchli bilimning (pramana) vositasini farq qiladi: 1) his-tuyg'u, qabul qilish (pratyaksha) yoki ob'ekt haqida bevosita bilish; 2) mantiqiy xulosa (anumana) – ob'ektni undagi o'zgarmas belgilarini (vyapti) qismlarga bo'lish orqali bilish; 3) solishtirish yoki qiyoslash (upamana) – yangi ob'ektni uni boshlang'ich tasviri va bilib olingan ob'ekt bilan o'xshashligi asosida tanish, va nihoyat, 4) obro'li shaxsning gapi guvohligi (shabda) orqali, ya'ni ishonchli shaxsning xabariga asoslangan bilim (3-ilova).

Nyayada asosiy o'rinni mantiqiy xulosa tahlili tashkil qiladi. Nyaya xulosani uch turga bo'ladi: 1) sababdan oqibatga (purvavat), masalan, osmonda to'planayotgan bulutlar orqali yomg'ir yog'ishini bilish; 2) oqibatdan sababga (sheshavat), masalan, daryoda ko'tarilgan suvning sathidan yomg'ir yog'ib o'tganligini bilish; 3) bevosita qabul qilinmaydigan va birinchisi bilan oshkora sabab-oqibat munosabati bilan bog'lanmagan bir hodisaning ikkinchisi bilan o'zgarmas ravishda hamrohlik aloqasi (samanyatodrishta), masalan, samoviy sayyoralarning ularning joyi o'zgarishi bo'yicha harakati.

Nyaya falsafasida his-tuyg'u uyg'otadigan ishonchli bilim vositasida xulosalar qilinadi. Bunda qiyos orqali ham natijaga erishiladi.

Mimansa (sanskritcha – ichiga kirish, tahqiq qilish, fikr qilish, bahs yuritish)ga xos narsa uning vedantaning ob'ektiv idealizmi, yogachar va madyamiklarning hamma narsani inkor etuvchilik tamoyillariga qarshi qaratilgan bahsli yo'nalishda bo'lganligidir. Bu narsa uni Nyaya va Vaysheshika maktablari bilan yaqinlashtiradi. *Mimansa* tashqi dunyoning voqeyligini himoya qilib, uni xudo yoki ruh tomonidan yaratilganligi va boshqarilishini inkor etadi. *Mimansa* dunyoni bizning tasavvurlarimizning majmuasi yoki oqimi, deb hisoblovchi buddaviylikning ba'zi maktablari ta'limotiga qarshi chiqqan. *Mimansa* ta'limotiga

ko'ra, umuman dunyo abadiy va o'zgarmas bo'lib, ibtidosi ham, intihosi ham yo'q. Ammo undagi ayrim ashyolar o'zgarishlarga duchor bo'ladilar, paydo bo'ladilar va zavol topadilar. Biroq barcha o'zgarishlarga qaramay ularning mutlaq yo'q bo'lishi va yangidan paydo bo'lishi kuzatilmaydi. Dunyoning barcha xilma-xilligini Mimansa bir necha tushunchalarda ifodalaydiki, ulardan eng muhim bo'lgan javhar – barcha sifatlarning asosi sifatida uning barcha ko'rinishlarida ishtirok etadi. Mimansa javharni to'qqiz turga bo'ladi: besh ashyoviy unsurlar (tuproq, suv, havo, olov, efir), ruh (atman), aql, zamon va makon. Aqlni istisno etganda, ushbu javhar bevosita his-tuyg'u orqali qabul qilinadi. Mimansa ta'limotiga muvofiq ashyoviy unsurlar atomli tarkibga egadirlar; efir – nozik, doimiy va barcha narsalarga kira oladigan javhardir. Dunyoning barcha ashyoviy ob'ektlari atomlardan tashkil topgandir.

Mimansa ta'limoticha, bilish nazariyasi yordamida nafaqat ashyolarni to'g'ri tushunishga erishish, balki asosiy metafizik tushunchalarni ham idrok etish mumkin. Bunga, jumladan, his-tuyg'u, mantiqiy xulosalar yoki solishtirish va boshqalar orqali erishish mumkin.

Vedanta (sanskritcha – xotima, Vedalarning tugashi) yoki uttara-mimansa (sanskritcha – oliy tadqiqot) – hind falsafasining ob'ektiv-idealistik tizimidir. Hind falsafasi tarixida Vedanta moddiyunchilik va xudosizlikka qarshi turib, dinni asoslash uchun keng qo'llanilgan. Shakllanayotgan ilk feodal munosabatlar sharoitida Vedanta idealizmi, ayniqsa Shankara ta'limotidagi uning talqini tabaqalarga bo'linish, ya'ni kastalar o'rtasidagi farqlarni mafkuraviy asoslashga va hinduviylik dinini shakllanishiga xizmat qilgan. Vedanta o'z ibtidosini Upanishadlar ta'limotidan olgan. Vedanta tarixidagi muhim bosqich Ramanudji va uning izdoshlarining (XVIII asrgacha) ijodidir. Shankara ta'limotining asosiy g'oyasiga ko'ra, borliqning yagona oxirgi asosi shaxsga ega bo'lmagan, mutlaq ruh-braxmandir. Inson ruhi (atman) braxman bilan ayniyatda bo'lib, uning tajribaviy namoyon bo'lishidir. Braxman borliq (sat), ong (chit) va hech narsa bilan buzilmaydigan xotirjamlik, rohat-farog'at (ananda)ning yagonaligi bilan ifodalanadi va shuning uchun *satchidananda*, deb ataladi. Vedanta hamma narsa yagona voqelik sifatidagi moddiy kuchlarning o'zaro harakatining mahsuli, deb qabul qilgan dunyo to'g'risidagi qoidani inkor etadi. U Braxmanni dunyoning mutlaq ruhiy mohiyati sifatida tushunib, tan oladi.

Sankhya (sanskritcha – son, hisob, borliq asoslarini hisoblab chiqish asosida fikr yuritish, haqiqiy ma'no) – hind falsafasining ilk maktablaridan biri bo'lib, eng yaxshi ishlab chiqilgan va ta'siri zo'r bo'lgan ta'limotdir. Asoschisi donishmand Kapila hisoblanadi. Sankxyaning ayrim ta'limotlari haqida guvohlik beruvchi ma'lumotlar Upanishadlar va ilk buddaviylik manbalarida uchraydi. Sankxyaning to'la ta'limoti Maxabxarata dostonlarida keltirilgan. Bu yerda u

yoga bilan qo‘shilib ketgan. Sankxyaning g‘oyalari Charaki va Sushrutaning qadimgi hindning medisinaga oid risolalarida, diniy-huquqiy qonunlarida (ayniqsa “Manu Qonunlari”da) va boshqa asarlarida keng foydalanilgan.

Prakritining dunyoviy mohiyatlarga aylanishi

Sankhya ta’limotiga ko‘ra, dunyoning birinchi sababi – prakritidir. U moddiy bo‘lib, borliqning javhariy asosidir. Prakriti his-tuyg‘u bilan qabul qilib bo‘lmaydigan nozik javhar bo‘lib, uning tabiati, u keltirib chiqargan moddiy dunyo ashyolarida, uning oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Oqibat o‘z sababida oldindan mavjud bo‘lsa, sabab o‘z oqibatida saqlanadi, sabab (sat) va oqibat (karya) mohiyatan ayniyatda bo‘ladi. Prakritining his-tuyg‘u bilan qabul qilib olinadigan dunyoviy mohiyatlarga aylanishi, uch sifatli unsur bo‘lgan rajas (intilish), tamas (qorong‘ilik) va sattva (aniqlik) ta’sirida kelib chiqishi mumkinligi ta’kidlanadi. Har bir ashyoda, uning xususiyatiga muvofiq bu uch unsurdan biri ko‘proq bo‘ladi. Sankhya prakriti bilan bir qatorda, dunyoning moddiy asosidan mustaqil bo‘lgan *purushi* (mutlaq ruh)ning mavjudligi ham tan olinadi. Agarchi purushi, uning tufayli mavjud bo‘lgan barcha ashyo va mohiyatlar tarkibida ishtirok etsa ham, uni ko‘rib yoki tutib bo‘lmaydi. Prakriti bilan purushining qo‘shilish vaqtida 25 asos paydo bo‘ladi. Ular orasida moddiy (suv, tuproq va shunga o‘xshash) ashyolar bilan bir qatorda ruhiy mohiyatlar (o‘z-o‘zini anglash, aql) ham vujudga keladi.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Hind moddiyuncha ta’limotlarining asosi nima?
2. Lokayata ta’limotiga ko‘ra, inson nimalardan tashkil topgan?
3. Vaysheshika falsafasida borliq muammosi qanday hal qilingan?
4. Nyayada bilimning to‘rt manbasi nimalar?
5. Mimansa so‘zining ma’nosi nima?
6. Vedantaga qaysi ta’limot asos bo‘lib xizmat qilgan?
7. *Prakriti* nima?
8. Mumtoz falsafiy maktablar hind ma’naviy hayoti taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega?

Mustaqil ta’lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o‘qing va qisqacha konspekt yozing.
2. “Hinduviylik falsafiy asosining olti tizimi” mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

3. Antik davr yunon faylasuflarining borliq haqidagi qarashlarini hind mumtoz falsafiy maktablaridagi gʻoyalar bilan qiyosiy tahlil qiling, ulardagi umumiy va farqli jihatlarini topib, shu asosda mustaqil ish tayyorlang.
4. Oʻzingiz bilgan va oʻqigan gʻarb faylasuflarining axloqiy qarashlarini hind axloqshunosligi bilan qiyoslab, shu asosda slayd tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Anikeyev N. P. O materialisticheskix traditsiyax v indiyaskoy filosofii. –M., 1965.
2. Gosteyeva Ye. I. Filosofiya Vaysheshika. –T., 1963.
3. Deysson P. Vedanta i Platon v svete kantovoy filosofii. Per. s nem. –M., 1911.
4. Djavaharlal Neru. Vzgl'yad na vsemirnuyu istoriyu. –M., 1974.
5. Djavaharlal Neru. Otkritie Indii. –M., 1968.
6. Ismatov B. Panteisticheskaya filosofskaya tradisiya v persidsko-tadjikskoy poezii IX-XV vv. –Dushanbe: Donish, 1986.
7. Istoriya Drevnego mira. Drevniy Vostok. –Minsk, Moskva, 2000.
8. Istoriya filosofii v kratkom izlozenii. –M.: “Misl”, 1991.
9. Istoriya filosofii. T. 1-2. –M., 1957.
10. Lunniy svet Sankhya i istina. Per. s sanskr. R. Garbe, rus. per. i predisl. N. I. Gerasimova. –M., 1900.
11. Maxabxarata. Vip. 2-7 (per. s sanskr., vvedenie, posleslovie, primechanie T. L. Smirnova). –Ashxabad, 1956-1963.
12. Maxabxarata. Ramayana. –M., 1974.
13. Myuller M. Shest sistem indiyaskoy filosofii. Per. s angl. –M., 1901.
14. Radhakrishnan S. Indiyaskaya filosofiya. Per. s angl. T. 1-2. –M., 1956-1957.
15. Radhakrishnan S. Istoriya filosofii Indii. –M., 1972.
16. Struve V. V. Istoriya Drevnego Vostoka. –L., 1941.
17. Turaev B. A. Istoriya Drevnego Vostoka. T. 1. –L., 1935.
18. Filosofskaya ensiklopediya. T. 3. –M., 1964.
19. Chatterdji S. I Datta D. Vvedenie v indiyaskuyu filosofiyu. Per. s angl. –M., 1955.
20. Chatterdji S. I Datta D. Drevnyaya indiyaskaya filosofiya. Per. s angl. –M., 1954.
21. Chattopadhyaya D. Lokayata darshana. Istoriya indiyaskogo materializma. Per. s angl. –M., 1961.
22. Shankara Achariya. Tattva-Bodha, ili Poznanie bitiya. Per. s nem., -Xarkov, 1912.
23. Shri Shrimad A. Ch. Bhaktivedanta Svami. Prabhupada. Bhagavad-gita kak

ona yest. Polnoe izdanie s podlinnimi sanskritskimi tekstami, russkoy transliterasiey, doslovnim i literaturnim perevodami i podrobnimi kommentariyami. Bxaktivedanta Buk Trist. –Moskva-Leningrad-Kalkutta-Bombey-Nyu Deli, 1992.

8-MAVZU

BUDDIZM VA JAYNIZM DINIY-FALSAFIY MAKTABIDA BORLIQ MASALASI

Reja:

- 1. Budda ta’limotining yoyilishi va unda borliq masalasining yoritlishi.**
- 2. Jaynizm ta’limoti va undagi borliq masalasining muhokamasi.**

Mavzuning o‘quv maqsadi

Talabalarda Qadimgi Hindistondagi buddaviylik va jaynizm ta’limoti g‘oyalaridagi borliq to‘g‘risidagi qarashlarni falsafiy mushohada qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari

Budda, Buddha, Siddxartxa, Guatama, buddaviylik, Shakya-muni, braxmanlar, Uruvilva o‘rmoni, tarki dunyochilik, dxarma, shoh Ashoka, karma, nirvana, sansara, madxyamika, yoga, chirog‘, shu‘la, oqim, Radjagrix, Vayshala, Pataliputra, Kashmir, Mohayana, Xinayana, andxra, Kumaragupta I, nalanda, vaybxashika, sautrantika, yogachara, vidjnyanavad, Dignaga, Dxarmakirti, “Pramanavartika”, Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo‘g‘uliston, Yaponiya, Gupta, Pala, hinduviylik.

Budda ta’limotining yoyilishi va unda borliq masalasining yoritlishi

Budda (to‘g‘rirog‘i Buddha, sanskrit tilida – oydinlashgan, nurlangan ma’nosida) Guatama urug‘idan chiqqan Siddxartxa ismli shaxs bo‘lib, buddaviylik an’anasiga ko‘ra, buddaviylik falsafasi va dinining asoschisidir. Siddxartxa Shakyamuni podsho Shuddxodan xonadonida tug‘ilgan bo‘lib, yoshligida braxman o‘qituvchilarining nasihatlarini tinglagan. 29 yoshida saroyini tark etib, Uruviyava o‘rmonida tarki dunyochilik holatida mushohada orqali dunyoning abadiy ravishda shakllanib turishini tushunib yetgan. Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, eramizdan oldingi uchinchi asrda kishilar uni yerdagi

buddaviylik dinining asoschisi hisoblashgan va ushbu din ijtimoiy holatdan yuz o'girishni, zo'rlikka qarshi chiqmaslikni va taqdirga tan berishni targ'ib etgan. Hozirgi zamon fani Budda hayotini eramizdan oldingi 563-483 yillarga taalluqli ekanini ta'kidlaydi.

Buddaviylik qadimgi hind jamiyatida mavjud bo'lgan tabaqalarga (kasta) bo'linish va kohinlarga qarshi chiqqan. Barcha insonlarning tengligining e'lon qilinishi buddaviylikning keng yoyilishiga sabab bo'lgan. Yirik davlatlar tashkil topishi sharoitida braxmanlik dinining kohinlariga qarshi qaratilgan bo'lganligidan, buddaviylik katta davlatlar hukmdorlariga foydaliroq edi. Eramizdan oldingi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni Hindistondan chetga chiqib yoyilishiga hissa qo'shgan edi. Budda dini o'z navbatida urf-odatlar, sig'inish marosimlari va aqidalar tizimini ishlab chiqqan. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan ruhlarning ko'chib yurishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, buddaviylik tirik mavjudotlarning qayta tug'ilish aqidasini olg'a surgan. Uning ta'kidlashicha, tirik mavjudotning o'limi uning zarrachalardan tashkil topgan tanasining sochilib ketishi bo'lib, shundan keyin uning yangi unsurlari bo'lgan – dxarmalarning yangidan tashkil topishi yuz beradi.

Dxarmalarning yangi kombinatsiyasi ilgarigi ko'chib yurish doirasida vujudga kelgan barcha xayrli ishlar va gunohlar majmuasiga bog'liq bo'lgan karma orqali tayin etiladi. Buddaviylikning ezgu orzusi – ruhning ko'chib yurish jarayonini to'la barham topishi va shu yo'l bilan go'yo hayot mohiyatini tashkil etuvchi azob-uqubatlardan qutulish holati – nirvanaga erishish edi.

Buddaviylikning falsafiy mazmuni ikki jihatni o'z ichiga oladi: narsalar tabiati haqidagi ta'limot va bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limot. Buddaviylikning narsalar tabiati haqidagi ta'limoti asosida draxmalar – “o'zining belgilariga ega bo'lgan zarrachalar” yoki “bo'lakchalar”, “unsurlar” to'g'risidagi tushunchalar yotadi. Bu ta'limotga ko'ra, draxma-zarrachalar dunyoviy ashyolarning hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo'lib, har lahza shu'lalanib va o'chib turadi. Uning har bir o'chishi yangidan shu'lalanish va boshqatdan o'chishni anglatadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o'zgarishda, qaytadan tug'ilishda ko'rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g'oyasi yotadi.

Buddaviylikda dxarma – unsurlari uchun bir necha tasniflash ishlab chiqilgan. Ilk buddaviylik namoyon bo'lgan borliq – sansara va namoyon bo'lmagan borliq – nirvanaga bo'linishni qayd etgan edi. “Namoyon bo'lgan borliq” charxida bo'lish azob-uqubatlardan tortish bilan hamroh bo'lib, undan qutulish – “axloqiy amalning sakkiz a'zoli yo'li”ni tushunishga olib boradi. Buddaviylik moddiy va ruhiy dunyolar yagonaligini ta'kidlaydi. Buni ta'kidlash

madxyaliklar falsafa maktabi namoyondalari tomonidan tizimga solib ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta'limoti va undagi borliq masalasining muhokamasi

Eramizdan oldingi I mingyillik o'rtalarida Hindistonda Vedalar mafkurasidan mustaqil ravishda bir necha ta'limotlar paydo bo'ldi. Ularda insonning jamiyatdagi o'rni masalasida yangicha yondoshuvlar bayon qilindi. Paydo bo'lgan bu yangi maktablar ichida jaynizm va buddaviylikka umumhind ahamiyatiga ega edi.

Jaynizm er. ol. VI-V asrlarda Hindistonda to'la shakllangan edi. Asoschisi keyinchalik Mohavira (buyuk qahramon) jina (g'olib), degan laqab olgan sayyoh tashviqotchi Vartxaman ismli kishi edi. Hindistonning shimoli-sharqida paydo bo'lgan bu diniy-falsafiy ta'limot keyinchalik butun Hindistonga tarqalgan bo'lsa ham, ammo hech qachon uning chegarasidan tashqariga chiqmagan.

Jaynizm adabiyotining asosiy qoidalari uning bir yo'nalishi bo'lgan shvetambarlar (oq kiyim kiyganlar) tomonidan er. avv. IV asrda ishlab chiqilgan. Ammo bu ta'limot to'laligicha eramizning X-XI asrlaridagina shakllangan.

Jaynistlar ta'limoti dualizm (sanaviyat)ni targ'ib qilgan. Unga ko'ra, inson shaxsining mohiyati ikki xususiyatga – moddiy (adjiva) va ruhiy (jiva)ga egadir. Ular o'rtasidagi bog'lovchi karma – nozik moddadan iborat bo'lgan jism bo'lib, ruhni qo'pol modda bilan qo'shilishiga imkon bergan (1-ilova). Tirik bo'lmagan moddaning karma iplari orqali ruh bilan qo'shilishi alohida shaxsning (individd) kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Karma esa, qayta tug'ilishning uzluksiz zanjirida ruhni doimo kuzatib boradi. Ruhning hayot charxining karmasi ta'siridan qutilishning iloji faqat tarkidunyochilik va hayrli faoliyat orqaligina amalga oshishi mumkin. Jaynizm buddaviylikka o'xshab o'z ta'limoti asosiga shaxs borlig'i muamolarini qo'ygan edi. Bu ta'limotga binoan yaratilmagan va buzilmaydigan ikki azaliy ibtido (javhar)dan bu dunyo yaratilgan. Ular jiva (tirik, jonli, ruhiy) va adjiva (jonsiz, modda)dan iborat. Adjiva bilan bog'langanlik darajasiga qarab, mohiyatlar o'rtasidagi o'zaro jarayon ta'sirini belgilovchi jiva (ruh) borliqning ikki shaklida namoyon bo'ladi, biri mukammal, ikkinchisi esa, nomukammal bo'ladi.

Nomukammal holatdagi jiva (ruh) modda bilan qo'shilganligi tufayli o'zining imkoniy sifatini yo'qotib, azob-uqubatlarga duchor bo'lishi mumkin. Mukammal borliq holatida esa, moddiylikdan qutilib, o'z borlig'ini boshqarishga qodir bo'lib huzur-halovatli holat bo'lgan nirvana yoki mokshaga o'tishi mumkin. Jivaning ikki borliq ko'rinishiga muvofiq ravishda jaynizm ikki turdagi bilimni, ya'ni nomukammal va mukammallikni tan oladi. Nomukammal bilim, bevosita va

bilvosita hosil qilingan bilimdir. Mukammal bilim esa, faqat moddiylik rishtalaridan uzilgan, ichki tuyg‘u (intuitiv) orqaligina hosil qilinishi mumkin.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Budda so‘zining ma’nosi nima?
2. Buddaviylikning asoschisi kim?
3. Buddaviylik ta’limoti nima uchun xalq orasida keng yoyildi?
4. Ushbu ta’limotga ko‘ra, eng oliy maqsad nima?
5. “Tanassuh”, deganda nimani tushunasiz?
6. Buddaviylikning falsafiy mazmuni nimalardan iborat edi? Jaynizm ta’limoti qachon to‘la shakllangan edi?
7. Bu ta’limotning asoschisi kim?
8. Jaynizmdagi dualizmi qanday tushunasiz?

Mustaqil ta’lim uchun vazifalar

1. Taqdim etilayotgan adabiyotlarni o‘qing va qisqacha konspekt yozing.
2. “Buddaviylik diniy-falsafiy ta’limot sifatida” mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
3. Buddaviylik va antik faylasuflar ta’limotlarini qiyosiy tahlil qiling, ulardagi umumiy va farqli jihatlarini topib shu asosda mustaqil ish tayyorlang.
4. Mavzuga oid 10ta savol, 15ta test va krossvord tuzishga harakat qiling.
5. Buddaviylikda bilish nazariyasi mavzusida klasster tuzing. Jaynizm diniy-falsafiy ta’limot sifatida” mavzusida slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. Buddaviylik va jaynizm ta’limotlarini qiyosiy tahlil qiling, ulardagi umumiy va farqli jihatlarini topib shu asosda mustaqil ish tayyorlang.

Adabiyotlar

1. Vasilev V. Buddizm, yego dogmati, istoriya i literatura. Ch. 1-3. –SPb, 1857-1860.
2. Oldenburg S. F. Jizn Buddi, indiyskogo uchitelya jizni. –P., 1919.
3. Minaev I. P. Buddizm. Issleovaniya i materialy. T. 1. vip. 1-2. –SPb, 1887.
4. Rozenberg O.O. Vvedenie v izuchenie buddizma po yaponskim i kitayskim istochnikam. Ch. 2. –Problemy buddiyskoy filosofii. –P., 1919.
5. Rozenberg O.O. O mirosozertsanii sovremennogo buddizma na Dalnem

- Vostoke. –P., 1919.
6. Sherbatskoy F. I. Teoriya poznaniya i logiki po izucheniyu pozdneyshix buddistov. Ch. 1-2. –SPb, 1903-1909.
 7. Sherbatskoy F. I. Filosofskoe uchenie buddizma. –P., 1919.
 8. Kochetov A. N. Buddizm. –M.: Nauka, 1965.

9-MAVZU:

LEVKIPP VA DEMOKRITNING ATOMISTIK FALSAFASI

Reja:

1. Levklippning olamning asosi haqidagi falsafiy qarashlari.
2. Demokritning ontologik ta'limoti.
3. Demokritning bilish nazariyasi.
4. Demokritning axloqiy qarashlari.

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda Levklipp va Demokrit falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; Demokritning atomistik ta'limotini olamning ibtidosi haqidagi boshqa ta'limotlar bilan qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mavzuning tayanch tushunchalari:

Atom, bo'shliq, tasodif zaruriyat, «birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlar, rasional bilish, evtyuma, me'yor, go'zallik.

Hayoti va ta'limoti: *Levklipp* miloddan avvalgi 500-440 yillarda yashagan deb taxmin qilinadi. Levkipp ta'limotiga ko'ra, **atom** bo'linmaydigan juda kichik, ko'zga ko'rinmas zarracha bo'lib, mutloq bo'shliqda harakat qiladi. Barcha narsalar shu zarrachalardan tashkil topgan bo'lib, olamdagi hech bir narsa yoki hodisa besabab hosil bo'lmaydi. Levkipp olamdagi narsalarning hammasi ma'lum ob'ektiv zaruriyat asosida kelib chiqadi deb hisoblagan.

Hayoti: Abderda Levkipp ta'limotini davomchisi uni rivojlantirib yuqori pog'onaga ko'targan qadimgi yunon faylasufi **Demokrit** miloddan avval 460-370 yillarda yashab, ijod qilgan. Faylasuf Frakiyadagi yirik savdo markazi Abder shahrida tug'ilgan. Xushchaqchaq, o'tkir zehqli Demokrit Sharq

mamlakatlariga - Hindiston, Bobil, Misrga sayohat qilib, ularning urf-odatları, san'ati va adabiyoti, falsafasi bilan tanishib, o'z bilimlarini boyitgan.

Asosiy asarlari: Demokrit ko'p asarlar yozgan, ammo ulardan bizgacha faqat ba'zi bir parchalar yetib kelgan. Demokritning eng mashhur asari «Buyuk Diakosmos»dir. U o'z ishlarida falsafa, mantiq, matematika, fizika, biologiya, kosmologiya, ijtimoiy turmush, psixologiya, axloq, pedagogika, filologiya, san'at kabi bilim sohalariga doir o'z qarashlarini bayon qilgan.

Ta'limoti: Demokrit ta'limotiga ko'ra, olamning asosi **ikki boshlang'ich:** atomlar hamda bo'shliqdan tashkil topgan. Atom bo'linmaydi, eng kichik bu zarracha hech o'zgarmaydi, lekin doimo harakatda bo'ladi. Ular ham son-sanoqsiz, ham abadiydir, atomlar bir-birlaridan shakli, katta-kichikligi, tartibi bilan ajralib turadi. Demokrit ularning hid, rang, maza singari xususiyatlari shartli, ular narsalar tabiatiga xos emas, deb faraz qilgan.

Demokrit fikricha, atomlarning qo'shilishidan turli-tuman narsalar kelib chiqadi, atomlarning ajralishidan esa bor narsalar yo'q bo'ladi. Abadiy son-sanoqsiz atomlar bepoyon bo'shliqda harakatda, ular har tomonga intilib, bir-birlari bilan to'qnashadi va girdobli atom harakatini hosil qiladi, natijada ko'p dunyolar yo'qolib, ko'plari paydo bo'lib turadi. Hech nimadan hech nima hosil bo'lmaydi. Hamma narsa abadiy son-sanoqsiz atom bilan cheksiz bo'shliqdan iborat, ulardan behisob dunyolar paydo bo'lib turaveradi. Ushbu holat xudolarning xohishi, istaklari bilan emas, balki tabiiy zaruriyat yo'li bilan sodir bo'ladi. Sababsiz hech bir narsa, hech bir hodisa yo'q bo'lmaydi. Barcha narsa va hodisalar o'z sababiga ega va zaruriydir. Insonlar hodisa yoki narsalarning sababini bilmaganlari uchun ham ularni tasodif deb hisoblaydilar.

Levkippp bilan Demokrit ta'limotlariga ko'ra, dunyo harakatdagi atomlardan, materiyadangina iborat. Lekin shuning bilan bo'shliq ham bor, real mavjud. Chunki son-sanoqsiz atomlar cheksiz bo'shliqda turli yo'nalishda - yuqoriga, pastga, o'ng va so'l tomonlarga harakat qiladilar. Atomlardan – ushbu yagona **substansiyadan** hamma narsalar kelib chiqadi, o'z navbatida ushbu atomlarga qaytadi. Demokrit fikricha, atomlar barcha narsa, xodisalarning sababchisi, asosidir. Ular bir sifatli, kichik zarrachalardir. Ko'zga ko'rinmas bu zarrachalar yuqori va quyi harakatlari, bir-biriga urinishlari, birlashishlari, qo'shilishlari, tebranishlari, siqilishlari, ajralishlari va birga bo'lishlari tufayli murakkab jismlarni, shu jumladan, inson tanasining hissiyotini ham keltirib chiqaradi.

U shuningdek, Quyosh va Oy yaltiroq-tekis ham yumaloq atomlarning to'planishidan kelib chiqqan, olovli qattiq jismlardan hosil bo'lgan Oyda vodiylar, tog'lar, jarliklar bor, deb hisoblagan.

G'ayritabiiy kuchlarning mavjudligini inkor etib, Demokrit jon haqida materialistik ta'limotini yaratgan. Jon bu yumaloq, harakatchan, alangadek juda yengil atomlardan, ularning qo'shilishlaridan hosil bo'ladi deb tushuntirgan va jonni olovli, issiq, kishi a'zosidagi «o'tli boshlang'ich» deb hisoblagan. Shu sababli Demokrit o'lim bu tana atomlarining jon atomlaridan tabiiy ajralishi, jon ham tana kabi o'ladi, deb aytgan.

Demokritning bilish nazariyasiga ko'ra, «fikran» va «chindan» mavjud sifatlar bor. «Chindan» mavjud sifatlar: atom va bo'shliqdir. Ular atom va bo'shliqqa xos xususiyatlar: hajm, kenglik, bo'linmaslik, harakat, shakldan iboratdir. «Fikran» mavjud sifatlarga rang, ta'm, hid, tovush, sovuq, issiq kabilar kiradi. Bu sifatlar «chindan» mavjud atom bilan bo'shliqqa xos emas.

Demokrit hissiy sezishni, hissiyotni bilishning birinchi bosqichi deb hisoblaydi, u insonda sezish, his, hissiyot, tuyg'u-narsalardan chiquvchi yengil-nozik oqimlar, obraz, surat-idollar oqimining havoga ta'siri tufayli inson ularni ko'radi, mana shu idollarning kishi sezgi a'zolariga ta'siridan insonda his, sezgi, tuyg'u paydo bo'ladi, deydi. Ushbu ravishda Demokrit, inson bilishining birinchi bosqichi kelib chiqishini izohlaydi. Demokrit bu hissiy bilishni «qorong'i bilish» deydi. Chin bilish, haqiqatni anglash aql faoliyatidan boshlanadi. Aql orqali bilish – eng yuqori, eng chuqur, eng to'g'ri bilishdir, deydi Demokrit.

Demokrit shubhasiz hissiy va aqliy bilishni birlikda ko'radi. U o'z bilish nazariyasi bilan birlikda mantiq masalalarining muhim qismlarini birinchi marotaba ishlab chiqdi, tushuncha, tasavvurni izohlab berdi. Demokrit induktiv-mantiq, ya'ni xususiydan umumiyga ko'tarilish – umumiy, nazariy bilimlarni yakka, empirik axborotlardan olish uslubining asoschisi bo'ldi. Demokrit bilishning induktiv usulini har taraflama asoslab, tabiat hodisalarini tadqiq etishda taqqoslash hamda taxmin qilishning muhim ahamiyatini qayd qilgan, bilishda tajribaning o'rnini to'g'ri ko'rsatib bergan.

Demokrit diniy aqidalarni rad etib, xudolarga e'tiqod insonda tabiatning dahshatli hodisalari ta'sirida paydo bo'ladi deydi. Yashin, chaqmoq chaqishi, yulduzlarning uzilishi, so'nishi, Quyosh, Oy tutilishi, Yer qimirlashi kabi hodisalar kishilarda qo'rquv tug'diradi. Demokrit xudoga, ilohiy kuchga sig'inish, sajda etish mana shular natijasida kelib chiqqan deb taxmin qilgan. Demokrit har qanday ilohiy mo'jizani rad etib, inson o'z sog'lig'ini saqlashga o'zi qodir, kishi o'z extirosini chegaralab o'z-o'zini idora etsa, o'z sog'lig'iga oqilona munosabatda bo'lsa, tozalikka rioya qilsa, doimo salomat bo'ladi, deb hisoblagan.

Demokrit ijtimoiy voqealarni naturalistik tabiiy nuqtai-nazardan tahlil etishga intilgan. Demokrit siyosiy faoliyatni ajoyib san'at deb bilgan. U savdogarlik, hunarmandchilikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlagan. Demokritning axloq-xulq, axloq qoidalari o'z zamonida ahamiyatlidir, u o'rta

quldorlar tomonida turib, mo‘‘tadillik g‘oyasini olg‘a surib : «*Hamma narsada me‘yor – go‘zallikning asosidir. Ortiqchalik va kamu-ko‘stlik menga noma‘quldir*», degan g‘oyani ilgari surgan.

Faylasufning axloqiy qarashlari siyosiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat buyuk qo‘rg‘ondir. Davlat manfaatlari, qolgan barcha narsalardan ustun turmog‘i lozim. Davlat yaxshi boshqarilishi uchun g‘amxo‘rlik qilish kerak. Hayotning maqsadi, deydi Demokrit, ruhning yaxshi joylashishidir. Bu maqsad yosh-qariga barobardir, farovonlik va zulm haqidagi tushuncha ob‘ektiv va barcha kishilar uchun birdir. «*Bir kishiga bir narsa yoqimli bo‘lsa, ikkinchi kishiga ikkinchi narsa yoqimli bo‘ladi, biroq barcha kishilar uchun yoqimli va farovon, haqiqat bittadir*». «*Rohat – bu yuzaga keltiruvchi foyda alomatidir, rohatsizlik-ziyonlikdir*», - deydi Demokrit. Me‘yor,- deydi faylasuf, - axloqni tabiatning insonga in‘om etgan kuch va qobiliyatiga mos kelishidir. Ruhning yaxshi joylanishi baxt bilan aynan bir narsa emas, balki jonning hech narsadan qo‘rqmay osoyishta va xotirjam yashashidir. «*Evtyumaga*» inson o‘z rohatini o‘tkinchi narsa bilan bog‘lamagan taqdirdagina erishishi mumkin. Demokritning axloqiy ta‘limotida insonning ma‘naviy axloqini harakatlantiruvchi kuch aqlidir. Aql bilan yo‘l tutgan inson baxtga erishishi mumkin, noto‘g‘ri harakat baxtsizlik keltirishi mumkin. Insonning barcha axmoqona, xato xatti-harakatlarini ilmsizlikdan deb biladi. Insonni na jismoniy kuch va na boylik baxtli qiladi. Insonni faqat haqiqatni bilish va ko‘p qirrali donolik baxtli qiladi. Donolik uchta hosil keltiradi. 1. *Yaxshi fikrlash*. 2. *Yaxshi so‘zlash*. 3. *Yaxshi harakat qilish*. Birinchisi ruhiy tetiklikni ta‘minlaydi. Yaxshi fikrlash, demak, narsalar haqida to‘g‘ri hukm chiqarishdir. Ikkinchisi samimiylilik, haqqoniylikdan iborat «so‘z ishning g‘oyasidir». Uchinchisi donishmandlik bilan va ezgulikni keltiradi. «*Kishi ezgu ish to‘g‘risida chiroyli gapirish o‘rniga, ezgu ishlarga va xatti-harakatlarga intilishi kerak. Natijada donishmand sahovatli kishiga aylanadi, aksi esa chuqur, nodonlik mevasidir*». Evdemonizm Demokritning ma‘naviy tizimini aniqlovchi tamoyildir, ya‘ni kishilar o‘z ehtiyojlarini mo‘‘tadil qilishlaridir. *Me‘yor hissi*, - deydi Demokrit, - *ezgu va baxtli hayot uchun zarurdir. Barcha go‘zallik o‘rtachalikdadir*.

Demokritning axloqiy qarashlari tarixan cheklangan. Masalan, uning qullarga munosabati salbiy bo‘lgan. Qullar, uning fikricha, u ilgari surgan axloqiy normalardan mahrumdir. Uning axloqiy normalari jamiyatning erkin kishilarigagina taalluqlidir. Qul esa jonli quroldir.

Uning fikricha, o‘z dushmani oldida kuchli bo‘lgan kishi kuchli hisoblanmaydi, balki *o‘z xohishlarini tiya oladigan kishigina kuchlidir*. Shunday kishilar borki, shahar ustidan hukmronlik qiladi, lekin ayollari oldida qulga

o'xshab ta'zim qiladilar. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi ijtimoiy, ma'naviy munosabatlarning umumlashmasidir.

Demokritning merosida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, odob-axloq, e'tiqod, vijdon va boshqa olijanob insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid qimmatbaho fikrlar mavjuddir. Ularning ba'zilar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Antik davr mumtoz falsafasining namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
2. Sofistika nima? Sofistlar kimlar?
3. Suqrot hayoti va ta'limoti haqida qaysi yozma manbalarda ma'lumot berilgan?
4. Levklipp va Demokrit atomni qanday talqin qilganlar?
5. Demokritning tasodif va zaruriyatga munosabati qanday bo'lgan?
6. «Birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlar haqidagi g'oyalarni kim ilgari surgan? Ular o'rtasidagi farq nimada?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O'zbekiston, 2000. 8-jild.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Antologiya mirovoy filosofii v 4-x tomax. T.1. chast 1, - M., 1969.
4. Asmus V.F. Istoriya antichnoy filosofii. –M.: Misl, 1985.
5. Asmus V.F. Antichnaya filosofiya. –M., 1982.
6. Asmus V.F. Demokrit. –M., 1960.
7. Velikie filosofi. – M. 1998.
8. Grinenko G.V. Istoriya filosofii: Uchebnik. –M.: Vishee obrazovanie. 2009. -685 s.
9. Zapadnaya filosofiya. Itogi tisyachiletiya. –Ekaterinburg, 1997.
10. Istoriya filosofii. –M.: PRIOR, 1997.
11. Istoriya filosofii dlya studentov vuzov. –Rostov na Donu, 1998.
12. Yo'ldoshev S. Antik davr falsafasi. -Toshkent, 1998.
13. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2003.
14. Kessidi F.X. Sokrat. –M.: Nauka, 1984.
15. Kratkiy ocherk istorii filosofii. –M., 1989.
16. Losev A.F. Istoriya antichnoy estetiki. Sofisti, Sokrat, Platon. – M.: Misl, 1984.
17. Losev A.F. Istoriya antichnoy estetiki. Pozdnyy ellinizm. –M., 1980.
18. Lure S.Ya. Demokrit. –M., 1970.

19. Naxov I.M. Filofofiya kinikov. –M.,1982.
20. Nadtochaev A.S. Filofofiya i nauka v epoxu antichnosti. –M.,1990.
21. Nersesyans V.S. Sokrat. –M.:Nauka,1984.
22. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. -Toshkent: Sharq,2002.
23. Falsafa. Qomusiy lug‘at. –Toshkent: Sharq, 2004.
24. Xrestomatiya po filosofofi. – M. Sentr, 1998.

10-MAVZU

Aflotunning borliq, bilimlarning mohiyati va turlari haqidagi qarashlari

Reja:

1. Aflotun falsafasining shakllanishi.
2. Aflotunning g‘oyalar dunyosi haqidagi idealistik falsafasi.
3. Aflotunning ijtimoiy siyosiy qarashlari.

Mavzuning o‘quv maqsadi:

Talabalarda Aflotun falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; Aflotun falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.



Mavzuning tayanch tushunchalari:

Aflotun Akademiyasi, «g‘oyalar dunyosi», «g‘oyalar piramidasi», dialektika, «Ideal davlat».

Hayoti: **Aflotun** miloddan avvalgi 427-347 yillarda yashagan. U Kodr deb atalmish shoh urug‘i naslidan kelib chiqqan hamda o‘zining kelib chiqishi bilan juda mag‘rurlangan.

Asarlari: «Bazm», «Fedon», «Teetet», «Davlat», «Parmenid», «Sofist».


Ta’limoti: Aflotun uch marta Janubiy Italiyaga, Sisiliyaga, Sirakuzga sayohat qiladi, u yerdagi pifagorchilar ittifoqi bilan hamkorlikda quldor aristokratiyasini quvvatlab ish ko‘radi, yana Afinaga qaytib keladi. Afinada afsonaviy qahramon Akademga bag‘ishlangan Parakda bog‘ida o‘z shogirdlariga dars beradi. Shu tarzda qadimgi faylasuflarning bosh muassasasi Akademiya tashkil qilinadi.

Aflotun avval Kratildan, keyin Suqrotidan ta’lim olib, o‘z falsafiy sistemasini asoslaydi. O‘zining mashhur dialoglarida o‘z dunyoqarashini, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazarini bayon qiladi. Aflotun o‘zigacha

bo'lgan barcha falsafiy-idealistik fikrlarni jamlab, o'zining yangi falsafiy sistemasini shakllantiradi (1-ilova).

1-ilova


Aflotun ta'limoti: negizlari va ta'siri



Ta'limoti: Aflotun o'z sistemasida narsalar dunyosi, g'oyalar dunyosi bor deydi. Narsalar dunyosi o'tkinchi, vaqtincha, ko'rimsiz, ammo g'oyalar dunyosi doimiy, o'zgarmas, chin go'zal dunyo deb hisoblagan. Uning fikricha, narsalar g'oyalar dunyosining soyasi, xira namoyon bo'lishidir (2-ilova).

2-ilova

G'oyalar piramidasi



Aflotun «Davlat» asarining VII kitobida bu haqida shunday bir taqqoslash orqali o'z nuqtai nazarini bayon qiladi. Qorong'u g'or, u g'orda kishanlangan mahkum kishilar yotishibdi, ular hech qaysi tomonga aylana olmaydilar, shu holda g'orning kichik bir tuynugidan tushgan so'nar-so'nmas yorug'likdan ushbu tuynuk yonidan qo'lida narsalari bilan o'tayotgan shaxslarning soyasinigina kuzatadilar, ammo ko'rinayotganlar kimlar ekanligini, ularning qo'lida nimalar borligini aslo bila olmaydilar. Xuddi shunday bu dunyo, ya'ni narsalar dunyosi g'oyalar dunyosining, ya'ni toza, pok, doimiy, abadiy go'zal dunyoning so'nib-so'nmas, xira soyasidir, deydi Aflotun.

Aflotun jonni tanadan mustaqil mavjud, alohida o'lmas ruhiy, ilohiy hisoblaydi. Jonlar dunyosi g'oyalar dunyosiga yaqin, shuning uchun ular ushbu pok, toza, abadiy, go'zal dunyodan ta'sirlanib, huzur qiladilar, biroq vaqti bilan ular-jonlar, narsalar dunyosiga, masalan, insonlar tanasiga kelib kiradilar hamda kishilar tanasida bo'lganlarida ular g'oyalar dunyosi ko'lankasi, soyasi bo'lgan narsalar dunyosini ko'rib avvalgi ko'rgan, huzurlanganlarini eslay boshlaydilar, shu ravishda eslash – «xotirlash», ya'ni bilish hosil bo'ladi, deydi Aflotun.

Aflotun jonni ruhiy, ilohiy, doimiy, abadiy o'lmas deydi. U inson o'lgandan keyin jon ham o'sha yulduzlar dunyosiga qaytib, go'zal g'oyalar dunyosidan ta'sirlanishi mumkin yoki o'lgan odam tirikligida narsalar dunyosiga berilib dinni, xudoga ibodatni buzgan bo'lsa, uning joni yulduzlar olamiga qaytmaydi, jazolanib hayvondan-hayvonga o'tib azobda bo'ladi, deydi Aflotun.

Aflotun o‘z asarlarida, masalan «Davlat» kitobida qo‘llagan uslubini «dialektik» uslub deydi. Dialektikaga u shunday ta’rif beradi: «Dialektika kishilarni savol-javob bera bilishiga o‘rgatadi». Aflotuncha, dialektika savol va javob bera olish san’atidir. Uni xususan, nutqda qo‘llash muhim ahamiyatga ega, deydi u. «Adolat», «go‘zallik» va «qaramlilik»ni ifodalash va tashviq etishda dialektikaning favqulodda muhimligini Aflotun qayd qiladi. Aflotun dialektika to‘g‘risida so‘zlar ekan, u mantiq bayonida ham xizmat qiladi. «Parmenid» kitobida Aflotun tushunchalar, umumiylik, konkretlik, ayniyat va qarama-qarshilik, ko‘plik va yakkalik kabi masalalarni mistik sistemasi ruhida ishlab chiqqan hamda shu sababdan dialektika vakili bo‘lib tarixda o‘z nomini qoldirgan.

Aflotun o‘z kitoblarida, birinchi navbatda, «Davlat» kitobida hokimiyat, uning shakllari, aholisi, tabaqa va sinflar to‘g‘risida ham gapiradi. Axloq-xulq nazariyasida Aflotun, aql-donolik, erk-botirlik, jasurlik, hissiylik-oqilonalik kishi xatti-harakatida namoyon bo‘ladi, deydi. Adolatlilik esa yuqorida zikr qilingan uch xislat – donolik, botirlik, oqilonalikning uzviy, garmonik qo‘shilishidan tashkil topadi, deydi Aflotun.



Aflotun o‘zining «Ideal davlat» utopiyasida jamiyatda uch tabaqa: hokimlar-faylasuflar, harbiylar, dehqon va hunarmandlar bo‘lishini aytadi. Davlat hokimiyati oqsuyaklar-faylasuflar qo‘lida bo‘lishi shart. Harbiylar-yollanma qo‘riqchilar – davlat apparati xodimlari quldorlar hokimiyatini himoya qilishlari darkor. Dehqon va hunarmandlar davlatga zarur hamma narsa-mahsulotlarni tayyorlashlari lozim. Aflotun qullarni hatto odamlar qatoriga qo‘shmaydi, ularni ma’naviy hayotdan mahrum maxluqlar deb ataydi.

Aflotun yoshligida rassom, yozuvchi bo‘lish niyatida edi, keyinchalik u faylasuf sifatida kamol topgan. Shuning uchun ham u o‘z falsafiy kitoblarida ko‘p badiiy obrazlar, uslublarni qo‘llaydi. Sharq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasi tarixida ham Aflotun ta’limotining ta’siri katta bo‘lgan. Aflotun chuqur bilimli hakim sifatida yuqori baholangan.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar

1. Aflotun kimning shogirdi bo‘lgan?
2. Nima uchun Aflotun ob’ektiv idealizm asoschisi, deb hisoblanadi?
3. Aflotun «xotirlash», «eslash» deganda nimani nazarda tutgan?
4. Aflotun ta’limoti pifagorchilar ta’limotiga nimasi bilan yaqin ?
5. Aflotunning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari uning qaysi asarida bayon etilgan?

6. Aflotun «dialektika» deganda, nimani tushunadi?
7. Aflotunning «ideal jamiyati» haqida nimalar bilasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O'zbekiston, 2000. 8-jild.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Antologiya mirovoy filosofii v 4-x tomax. T.1. chast 1, - M., 1969.
4. Asmus V.F. Istoriya antichnoy filosofii. –M.: Misl, 1985.
5. Asmus V.F. Antichnaya filosofiya. –M., 1982.
6. Velikie filosofi. – M. 1998.
7. Grinenko G.V. Istoriya filosofii: Uchebnik. –M.: Vishee obrazovanie. 2009. -685 s.
8. Zapadnaya filosofiya. Itogi tisyachiletiya. –Ekaterinburg, 1997.
9. Istoriya filosofii. –M.:PRIOR, 1997.
10. Istoriya filosofii dlya studentov vuzov. –Rostov na Donu, 1998.
11. Yo'ldoshev S. Antik davr falsafasi. -Toshkent, 1998.
12. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2003.
13. Kessidi F.X. Sokrat. –M.: Nauka, 1984.
14. Kratkiy ocherk istorii filosofii. –M., 1989.
15. Losev A.F. Istoriya antichnoy estetiki. Sofisti, Sokrat, Platon. – M.: Misl, 1984.
16. Losev A.F. Istoriya antichnoy estetiki. Pozdny ellinizm. –M., 1980.
17. Nadtochaev A.S. Filosofiya i nauka v epoxu antichnosti. –M., 1990.
18. Petrisi I. Rassmotrenie platonovskoy filosofii i Prokla Diadoxa. – M., 1984.
19. Platon. Sochineniya v 3-x tomax. –M., 1968-1972.
20. Platon i yego epoxa. –M., 1979.
21. Raximov I. Falsafa. – T.: Universitet, 1998.
22. Rojanskiy I.D. Razvitie yestestvoznaniy i filosofii v epoxu ellinizma i Rimskoy Imperii. –M., 1998.
23. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -Toshkent, 1992.
24. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. -Toshkent: Sharq, 2002.
25. Falsafa. Qomusiy lug'at. –Toshkent: Sharq, 2004.
26. Xrestomatiya po filosofii. – M. Sentr, 1998.

11-MAVZU

Arastuning borliq, aql va bilim haqidagi qarashlari. Ravoqiylarning kosmopolitizmi. Yangi aflatunchilarning emanatsiya nazariyasi. Qadimgi dunyo umidsizligining (skeptisizm) mohiyati

Reja:

1. Arastu falsafasining shakllanishi.
2. Arastuning borliq haqidagi falsafiy ta'limoti.
3. Arastuning bilish nazariyasi.
4. Arastu fanlarning tasnifi haqida.

Mavzuning o'quv maqsadi:

Talabalarda Arastu falsafasiga oid tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; Arastu falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni hamda falsafiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.


Mavzuning tayanch tushunchalari:

Likey, peripatetiklar, «yaratuvchi sabab», «oxirgi sabab», «birinchi harakatlantiruvchi», harakat turlari, mantiq kategoriyalari, fanlar tasnifi, nazariy falsafa, amaliy falsafa, ijodiy falsafa.

Hayoti: *Arastu* miloddan avvalgi 384-322 yillarda yashab, ijod etgan. U Stagira shahrida otasi Makedoniya shohi Alintin saroyida vrach bo'lib xizmat qilgan. Arastu yoshligidan madaniyatli oilada tarbiyalanib o'sgan hamda o'n yetti yoshida Afinaga kelib Aflatun akademiyasiga o'qishga kirgan, yigirma yilcha ushbu akademiyada ta'lim olgan. Aflatun bilan ko'p masalalarda munozara qilgan, oqibatda Aflatun nuqtai nazarini rad qilgan. Aflatun vafotidan so'ng u akademiyaning tashlab, Afinada o'z maktabi – Likeyni tashkil qiladi. Miloddan avvalgi 343-yildan boshlab, Arastu bir necha yil Iskandar Zulqarnaynning tarbiyachisi bo'lgan (1-ilova).

Asosiy asarlari: Arastu «Fizika», «Metafizika», «Jon to'g'risida», «Kategoriya», «Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlarida uning samarali ijodi o'zining to'la ifodasini topgan. Arastuning tabiiy-ilmiy qarashlari uning «Fizika», «Osmon haqida», «Meteorologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kitoblarida bayon qilingan.

Arastu ta'limoti: asosi va keyingi ta'siri




Ta'limoti: «Metafizika» - «Birinchi asar»ida Arastu to'rt xil sabab haqida fikr yuritadi: 1) moddiy sabab; 2) shakliy sabab; 3) yaratuvchi sabab; 4) maqsad sabab. Arastu fikricha, modda, materiya - har bir narsaning «so'nggi» substrati – materialidir. Har bir narsa undan hosil bo'ladi. Narsa tarkibiga kiruvchi materialdan, masalan, misdan haykal, kumushdan idishlar, loydan sopol yasaladi. Bu moddiy sababdir. Shakl ikkinchi sabab bo'lib, har bir narsaga shakl ato qiladi. Agar shakl bo'lmasa mis, kumush, loy qanday material holida bo'lsa shunday qolaveradi. Arastu fikricha, shakl faol sababdir. U shaklni xattoki borliqning ma'nosi ham deydi. Arastu moddani passiv, faqat imkoniyat bo'lib, u shakllanibgina ro'yobga chiqadi deb hisoblaydi.

Agarda materiya va shakl «narsalar nimadan tuzilgan» degan savolga javob bersa, «yaratuvchi sabab» «nima qilinayapti» degan savolga javob qaytaradi. Masalan, ota bolaning sababchisidir, shunga o'xshash nima qilinishi, nima qilinayotganini sababi, nima o'zgarsa, nima o'zgarganining sababidir. «Oxirgi sabab» - «maqsad» Arastu tasavvurida «nima uchun» tabiat hodisalarining kelib chiqishini ifodalaydi. Shuning uchun har bir tabiiy hodisada Arastu ichki azaliy maqsad, entelexiyani ko'rdi.

2-ilova

Arastu: birinchi harakatlantiruvchi va harakat



Arastu tabiatni harakat va taraqqiyotda, imkoniyatni esa voqelikka aylanish jarayoni deb tasvirlaydi. Uning fikricha, butun olam o'z harakatini – «birinchi harakatlantiruvchidan» oladi. Bu fikr keyingi o'rta asr faylasuflari uchun g'oyaviy manba bo'lib xizmat qildi (2-ilova).

Arastu olamni bilishda avvalo inson sezgisining roli to'g'risida gapirib, hamma seziladigan va sezgi uyg'otadigan narsalar tashqarida mavjud, degan xulosaga keladi (3-ilova).

3-ilova

Arastu: bilish bosqichlari haqida

<i>Bilish bosqichlari</i>	<i>Bilish predmeti</i>
1. Alohida narsa va xususiyatlarni <i>hissiy qabul qilish.</i>	Yagona konkret narsalar.
2. <i>Tajriba</i> – bir predmet haqida takroriy xotiralar.	Alohida konkret narsalarning ko'pligi.
3. <i>San'atkorlik</i> (ustalik) – ko'p narsalarning mohiyatini bilish.	Ko'plikdagi umumiylik, ularning sabablari va maqsadi, ya'ni shakllari.
4. <i>Falsafa</i> (fan) – eng oliy birinchi falsafa, ya'ni metafizika.	Oliy shakllar, butun mavjudlikning birlamchi sababi va oliy maqsadi.

Arastu nazarida ayrim sezgilar kishi dilida jam bo'lib, takrorlanib umumiylikka yo'l – tasavvurni hosil qiladi. Inson aqli ayrimlikdan xususiylikka o'tishda, xususiylikdan umumiylikni topishda namoyon bo'ladi. Demak, inson ayrim buyum va hodisalarning shaklini sezishdan, xususiylikka, so'ngra aqli, nazariy bilim vositasida umumiylikni bilishga erishadi. Zotan narsalardagi, hodisalardagi umumiylikni bilish, sezishning ishi emas, balki aql, tafakkur, nazariy bilishning, fanning vazifasidir (4-ilova).

Arastu fandagi muhim xizmatlaridan biri uning harakatning turlari va taraqqiyot shakllari to'g'risidagi nuqtai nazaridir. Uningcha, olti xil harakat, olti tur umumiy o'zgarish bor: a) mohiyatdagi o'zgarish; 1) paydo bo'lish; 2) yo'q bo'lish; b) tor ma'noda o'zgarish; 3) bir holatdan boshqa holatga o'tish – sifatiy o'zgarish; 4) ko'payish; 5) ozayish – miqdoriy o'zgarish; 6) joy almashuvi, hol o'zgarishi.

Arastu mantig'ida, uning kategoriyalari haqidagi ajoyib ta'limotlarida ko'p ma'no, chuqur mazmun bor. U kategoriyalarni birinchi marotaba quyidagicha tavsiflaydi: 1) mohiyat; 2) miqdor; 3) sifat; 4) munosabat – katta-kichik; 5) o'rin; 6) vaqt; 7) holat, o'tirish, turish, yotish; 8) egalik; 9) ta'sirlanish; 10) iztiroblanish.


Arastuning koinot haqidagi ta'limoti ham o'z vaqtida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Arastu Oy va Yerning yumaloqligi to'g'risida fikr yuritgan. U 500 ga yaqin hayvon turlarini o'rganib ularni qonli va qonsizlarga ajratgan.

4-ilova

Arastu: fanlar tasnifi haqida

FAN

PREDMETI



San'at Arastu fikricha, tabiatga taqliddir, biroq faqat taqlidgina emas, voqelikni obrazda qayta ishlash bilan falsafadan, tabiiy fanlardan, tarix ilmidan farq qiladi. Demak, Arastu san'atni bilish vositasi, voqelikni, hayotni, ijtimoiy turmushni anglash yo'li deb bildi va ta'rifladi.

Arastu mo'ʻtadillik, o'rta holchilik tarafdori bo'lib, o'ta boy va o'ta qashshoq bo'lishdan o'rtaxollik yaxshiroqdir; hokimiyat, davlat ham quldorlarning o'rta tabaqasi tomonidan idora qilinishi kerak, degan g'oyalarni ilgari surgan.

Arastuning axloqiy qoidalari uning iqtisodiy nuqtai nafari bilan ulanib ketadi. Arastu iqtisod fanining asosiy masalalaridan ayirboshlash, qiymat shakllari, ekvivalent formalari, mehnat, tenglik masalalari singari muammolarni tekshirgan. U mazkur masalalarni nazariy jihatdan yechishga harakat qilgan.

Arastu ta'limotining ilg'or tomonlarini rivojlantirishida Arab, Eron, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston faylasuflarining xizmatlari kattadir. Al-Kindiy, al-Forobiy, al-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Mirza Bedil kabi fan va adabiyotning mashhur arboblari asarlarini o'qib, tadqiq etib bunga to'la ishonch hosil qilamiz.

Mavzuni o'zlashtirish uchun savollar

1. Arastuning «Metafizika» asari qanday masalalarning tahliliga bag'ishlangan?
2. Arastu ta'limotiga ko'ra, necha xil sabablar mavjud?
3. Arastu bilishni qanday bosqichlarga bo'ladi?
4. Arastuning harakat va uning turlari haqidagi ta'limotini bilasizmi?
5. Arastu o'z mantiqshunosligida kategoriyalarni necha xil toifaga ajratadi?
6. Arastu yaratgan fanlarning tasnifini bilasizmi?
7. Sharq falsafasida shunga o'xshash fanlarning tasnifini yaratgan faylasuflardan kimlarni bilasiz?
8. Arastu ijtimoiy-siyosiy ta'limotidagi «“oltin o'rta” holatida bo'lish» tamoyilining mazmun-mohiyati nimada?
9. Arastu insonga qanday ta'rif bergan?
10. Arastuning «Aflotun mening do'stim, lekin haqiqat undan ustunroqdir», degan fikrini qanday izohlaysiz?
11. Demokrit, Aflotun va Arastuning falsafiy ta'limotlari keyinchalik G'arbda va Sharqda falsafiy fikr rivojiga ta'sir ko'rsatganmi?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O'zbekiston, 2000. 8-jild.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Antologiya mirovoy filosofii v 4-x tomax. T.1. chast 1, - M., 1969.
4. Asmus V.F. Istoriya antichnoy filosofii. –M.: Misl,1985.
5. Asmus V.F. Antichnaya filosofiya. –M.,1982.
6. Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax. –M., 1975-1983.
7. Velikie filosofi. – M. 1998.
8. Grinenko G.V. Istoriya filosofii: Uchebnik. –M.: Vishee obrazovanie. 2009. -685 s.
9. Zapadnaya filosofiya. Itogi tisyachiletiya. –Ekaterinburg,1997.
- 10.Istoriya filosofii. –M.:PRIOR,1997.
- 11.Istoriya filosofii dlya studentov vuzov. –Rostov na Donu, 1998.
- 12.Yo'ldoshev S. Antik davr falsafasi. -Toshkent,1998.
- 13.Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2003.
- 14.Kratkiy ocherk istorii filosofii. –M.,1989.
- 15.Losev A.F. Istoriya antichnoy estetiki. Pozdny ellinizm. –M.,1980.
- 16.Naxov I.M. Filosofiya kinikov. –M.,1982.
- 17.Nadtochaev A.S. Filosofiya i nauka v epoxu antichnosti. –M.,1990.
- 18.Platon. Sochineniya v 3-x tomax. –M.,1968-1972.
- 19.Platon i yego epoxa. –M.,1979.
- 20.Raximov I. Falsafa. – T.: Universitet, 1998.
- 21.Rojanskiy I.D. Razvitie yestestvoznaniy i filosofii v epoxu ellinizma i Rimskoy Imperii. –M.,1998.
- 22.Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -Toshkent,1992.
- 23.Skirebekk G., Gile N. Falsafa tarixi. -Toshkent: Sharq,2002.
- 24.Falsafa. Qomusiy lug'at. –Toshkent: Sharq, 2004.
- 25.Xrestomatiya po filosofii. – M. Sentr, 1998.
- 26.Chanishev A.N. Aristotel. –M.,1987.

GLOSSARIY

Abadiy qaytish ta'limoti – bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo'lgan abadiy barhayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo'ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo'shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o'z ruhiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi zarur.

Absurd - Kamyu "Sizif haqida afsona" nomli falsafiy risolasida ma'nosizlik (absurd) falsafasini oldinga surdi.

Agnostisizm – bilishni inkor qiluvchi ta'limot.

Antinomiya – isbotlash ham inkor etish ham mumkin bo'lgan haqiqatlar yoki qoidalar.

Apeyron – Anaksimenes ta'limotida: olamning umumiy moddiy asosini tashkil etuvchi nomuayyan mayda zarrachalar.

Aporiya – aynan bir narsaga nisbatan aytilgan qarama-qarshi xulosalarning "tengligi" ni, ya'ni chinligini isbotlovchi dalil.

Apologetika – so'zning lug'aviy ma'nosi himoya qilmoq demakdir, ya'ni xristian dini aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir.

Aprior – tajribagacha bo'lgan bilim.

Apsterior – tajribadan keyingi bilim.

Arxetip - yungcha «arxetip»lar inson holatining shakliiy timsollaridir yoki majoziiy andozalaridir.

Assotsiatsiya – bilishdagi munosabat-asoslari.

Axloqiiy rasionalizm – bilimlar inson axloqiiy faoliyatini yaxshilikka qaratish orqali namoyon bo'ladi.

Atom – dunyoning moddiy asosi, ruhiyatga ham ega, doimiiy harakatda, mayda, bo'linmas zarracha.

Atlantida – yo'q bo'lib ketgan jamiyat.

"A'lo odam" - zaminning mazmuni, mukammal kuchli irodaga ega bo'lgan inson.

Biologik antropologiya – insonni biologik mavjudot sifatidagi jihatlarini bo'rttirib o'rganuvchi ta'limot.

Birlamchi sifatlar – narsalarning mohiyatiiy belgilari.

Begonalashish – o'zgaga aylangan inson, har bir narsaga begona bo'lgan inson, "Begona" asarining bosh qahramoni Merso faqat o'zi uchun yashaydi, uning qalbida odamlarga bo'lgan mehr alangasi so'ngan.

Boshlang'ich ibtido – substansiya, birinchi ibtido, asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi.

Gedonizm – lazzatlanish, huzurlanish.

Gilozoizm – hamma mavjud narsalarni ruhga, jonga ega deb hisoblash.

Geotsentrizm - Yer - Olamning markazi, degan ta'limot.

Gomomeriyalar – Anaksagor ta'limotida: dunyoning moddiy asosini tashkil etuvchi mayda zarrachalar -urug'chalar.

Gumanizm – insonning dunyodagi o‘rni, mohiyati va vazifasi, borlig‘ining mazmuni va maqsadi haqidagi tushuncha.

Dasiyn - Xaydegger o‘z falsafasiga “dasiyn” tushunchasini kiritadi. Bu tushuncha inson borlig‘i ma’nosini anglatadi.

Demiurg – eng oliy iloh, xudo desa ham bo‘ladi.

Determinizm – zaruriy shartlanganlik tamoyili.

Deduksiya – umumiydan xususiyga borish.

Deizm – xudo olamni yaratadi, lekin keyingi rivojiga aralashmaydi degan falsafiy ta’limot.

Deduktiv metod – umumiy bilimdan xususiy bilimga borish usuli. Dekart inson aqliga yuqori baho beradi, natijada rasionalizmni rivojlantiradi. U Bekonga qarama-qarshi deduktiv metodni ilgari suradi.

Dialektika – raqib bilan bahs-munozara yurita olish san’ati.

Donolik – yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amal birligi.

Dualizm – nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mavjud.

Zarurat – olamdagi hamma narsa belgisi asosda paydo bo‘ladi, ob’ektiv zaruratdan paydo bo‘ladi.

Ideal jamiyat – xususiy mulksizlikka asoslangan hayoliy jamiyat modeli.

Ijtimoiy kelishuv – jamiyatni shartnoma asosida paydo bo‘lganligi haqidagi ta’limot.

Ijtimoiy adolat – jamiyatdagi adolat shakli.

Ikki haqiqat – dunyoviy va diniy bilimlar bir xil darajaga ega.

Ikkilamchi sifatlar – narsalarning tashqi sifatli belgilari.

Ilk xristianlik – xristianlikning shakllanishi va rivojining dastlabki davrlari.

Induksiya – xususiydan umumiyga borish.

Induktiv metod – tajriba orqali olingan materiallarni miyada qayta ishlash usulidir.

Inson borlig‘i - inson borlig‘ini "ekzistensiya" deb atadilar.

Inson-mexanizm – inson mexanika qoidalariga bo‘ysinuvchi mavjudot.

Inson falsafasi - inson ma’naviy hayotining ichki qonuniyatlarini, hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma’nosi, inson ruhiyatining tahlili, falsafiy tafakkurning o‘ziga xosligi, falsafada yangi uslub, inson faoliyatini ijobiy tomonga yo‘naltiruvchi ta’limot.

Ioniya falsafasi – Ioniya tumanida yuzaga kelgan barcha falsafiy ta’limotlarni ioniya falsafasi deb atashgan.

Irrasionallik - ob’ektiv dunyoning umumiy qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», sub’ekt ongining hodisalarini tahlil qilishga o‘tdilar.

Yo‘qlik – borliqning muqobili, ya’ni mavjud bo‘lmaslik.

*Kategoriya*lar – eng umumiy tushunchalar, mantiq tushunchalari.

Kategorik imperativ - Kant axloqshunosligidagi «burch haqidagi» ta’limot.

Libido - Inson tug‘ilgandan boshlab, butun hayoti davomida uning bapcha hapakatlapining sabablarini Froyd ong ostida yotgan, anglanmagan xipsiy hissiyotlar, ya’ni "libido" oqali tushuntirdi.

Logos –Geraklit falsafasida: qonun, moddiy dunyo qonuni.

Maevtika, ironiya – suhbat olib borish usullari.

Margburg maktabi - German Kogen (1842-1918) - neokantchilikning Margburg maktabi asoschisi va rahbari.

Matematik tabiiyotshunoslik - cheksiz bilish jarayonida va borliqni yaratilishida Kogenning ideali - bu matematik bilishdir. Yangi tabiiyotshunoslik - bu matematik tabiiyotshunoslikdir.

Materiya – moddiy asos.

Milet maktabi – miloddan avvalgi VII asr oxiri - VI asr boshlarida vujudga kelgan, ularning vakillarini ioniyalik faylasuflar ham deb atashgan.

Mifologiya – afsonalar va asotirlar haqidagi ta’limot. Qadimda falsafani manbasi, material vazifasini o‘tagan.

Metafizika – tabiatdan oldin, birinchi falsafa ma’nosida ham qo‘llaniladi.

Metod – usul haqidagi ta’limot.

Muhabbat va yovuzlik - Empedokl ta’limotida barcha unsurlarni harakatga keltiruvchi kuchlar. Unsurlarni birlashtiruvchi kuchni u muhabbat desa, ularni bir-biridan ajratuvchi kuchni yovuzlik, nafrat kuchi, deb biladi.

Moduslar – narsalarning sifatlari.

Monadalar – birlamchi asoslar, ruhiy substansiyalar.

Narsalar dunyosi – o‘tkinchi, yo‘q bo‘luvchi, o‘zgaruvchan dunyo.

Nisbiylik – hamma narsa o‘zgaruvchan, oquvchan xususiyatga ega, sukunat esa vaqtinchalik, nisbiydir.

Neoplatonizm – yangi aflatunchilik, ellin davrida rivojlangan oqim.

Neokantchilik - Kantning ta’limotini va uning tarafdorlari fikrini qayta tiklash orqaligina mumkindir. Bu oqim mavhum «ong» kategoriyasi ustida ishlagan.

Neokantchilikning fiziologik yo‘nalishi - asosan hissiyotning tashqi fiziologiyasi haqidagi ta’limotlarning rivoji orqali bo‘ladi.

Noklassik falsafa - XIX asrning o‘rtalaridan boshlab noan’anaviy (noklassik) yo‘nalishdagi bir qancha falsafiy oqimlar.

Nominalizm – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “nomina” – nom degan ma’noni bildiradi. Nom, ism narsalardan keyin paydo bo‘ladi degan ta’limot.

Nus - Anaksagor ta’limotida: harakatlantiruvchi kuch (aql) o‘z harakatini koinotning borgan sari katta qismlariga ta’sirini ko‘rsataveradi.

Olov – Geraklit ta’limotida: olamning asosi, hamma tabiiy narsalarning negizi.

Olov, havo, suv va yer - qadimgi falsafiy ta’limotlarda moddiy olamning asosini, negizini tashkil etuvchi to‘rt element.

Onglilik - onglilik bu hodisalarning yuzaki qismidir. Bizning butun tashqi, ichki taassurotlarimiz, hissiyotlarimiz ongimiz tomonidan anglanadi. Ular ichki ruhiy xolatlar bilan bog'liqdir.

Ongning dastlabki ma'lumotlari - «ong» kategoriyasi dunyoni tushunishni birinchi shartidir, va har qanday fan ob'ektining asosida yotadi.

Ongsizlik - Freydning fikricha, ongdan siqib chiqarilgan hamma narsa ongsizlikdir, lekin ongsizlik siqib chiqarilgan hodisalar bilan aynan bir narsa emas.

Panteizm – xudo har yerda mavjud degan ta'limot.

Patristika – lug'aviy ma'nosi "ota"ni anglatadi, bu so'z ko'pincha hurmat ma'nosida g'arbiy yepiskoplarga berilgan.

Pifagorchilar ittifoqi – Pifagorning shogirdlari va uning ta'limotini davom ettirgan faylasuflar. Musiqa, arxitektura, tasviriy san'at nazariyasini yaratishda ularning tarixiy xizmatlari katta bo'lgan.

Pirs tamoyili - tadqiqot jarayonida olim napsalapning ob'ektiv sifatini, xossalarni emas, balki ularning his-tuyg'ulapimizga ta'sir qilishi va shularning natijasida paydo bo'lgan olimning sub'ektiv taassupotlarini o'rganadi. Olim o'zining his-tuyg'ulapi doirasidan chiqib keta olmaydi. Aslida esa bu neokantchilikka qaytish va napsalarni "napsa o'zida" va "napsa biz uchun" ga ajratishdir.

Pozitivizm - G'arb falsafasida juda keng tarqalgan yo'nalish. XIX asrning 30-yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan asos solingan.

Pozitivlik - birinchidan, yolg'onchilikka qarshi haqqoniylik; ikkinchidan, keraksizlikka qarshi foydali; uchinchi, shubhalilikka qarshi ishonchlilik; to'rtinchidan, noaniqlikka, mavhumlikka qarshi aniqlik; beshinchidan, salbiylikka qarshi ijobiylik va nihoyat oltinchidan, buzg'unchilikka qarshi tuzuvchanlik ma'nolarida ishlatiladi.

Pragmatizm - XX asr boshlarida AQShda vujudga kelgan ta'limot.

Pragma - "Pragmatizm" tushunchasining etimologik kelib chiqishi yunoncha "pragma" so'zidan olinib, ish, hapakat ma'nosini anglatadi. Falsafa tarixida bu tushuncha ilk bora I. Kant o'zining "Aqlning tanqidi" asarida "pragmatik e'tiqod" sifatida ishlatilgan.

Progress – taraqqiyot haqidagi ta'limot.

Rasionalizm – bilishda aqlni rolini oshirib ko'rsatuvchi ta'limot.

Rasionallik - Kantdan Hegelgacha bo'lgan yo'l - bu insonning tanqidiy baholovchilik qobiliyati sifatida tushunilgan oliy aqlning Hegelcha «ilohiy» aql aqidasi o'rin bo'shatib berishi yo'lidir.

Realizm – lotincha so'zdan olingan bo'lib, "realis" – real mavjud degan ma'noni bildiradi. G'oyalar narsalardan oldin real xolatda mavjud degan ta'limot.

Regress – orqaga ketish.

Renessans – Uygʻonish davri.

Ruhiyat tahlili - bu taʼlimot XIX-XX asrlarda vujudga keldi. Uning asoschisi avstriyalik psixiatrik Zigmund Freyd boʻldi. U asabiy kasallarni davolashning yangi uslubini taklif qiladi, natijada bu uslub ruhiyat tahlili deb nomlanadi.

Ruhiy energiya - ruhiy energiya tashkil etadi. Bu energiyadan butun borliq - yulduzlar, sayyoralar, oʻsimliklar, hayvonot va insonlar yaratilgandir.

Sensualizm – bilishda sezgilarni rolini, ahamiyatini boʻrttirib koʻrsatuvchi taʼlimot.

Skeptizm – yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, koʻrib chiqayapman, tadqiq qilyapman, mulohaza yurityapman, shubhalanyapman degan maʼnolarni bildiradi. Bu oqimning koʻzga koʻringan vakillari – Pirron, Agripp, Seneka, Sext Empirik.

Sodda dialektika - Geraklit taʼlimoti misolida: hamma narsa harakatda, olam toʻxtovsiz oʻzgarishlardan iborat. Harakat moddiy olam doirasida asosan qarama-qarshiliklarning birligi va kurashidan iborat.

Sodda materializm - Ioniyalik mutafakkirlar rang-barang dunyo xodisalarining birligini yo suvda, yo ayeirona, yo havoda deb tushuntirishga intilganlar.

Sofistlar - donolik oʻqituvchilari sifatida faoliyat koʻrsatishdi. (Sofiya-donolik demakdir).

Stixiya – tabiatning ongsiz harakati.

Stoizizm – miloddan avvalgi IV asr oxirida Yunonistonda stoiklar taʼlimoti shakllana boshlandi. U ellinistik davrda hamda keyingi Rim davrida keng tarqalgan falsafiy oqimlardan biriga aylangan edi. Ularning fikricha, falsafaning asosiy qismini mantiq tashkil qiladi.

Subʼektivizm – bilishda inson ongini, xislarini oʻrnini koʻtarib koʻrsatuvchi taʼlimot.

Son – Pifagor taʼlimotida: dunyoning asosi, ular ilohiy qudratga ega. *Matematika* - matematik tushunchalar oʻzgarmas boʻlgani holda, narsalar yoʻq boʻlib ketaveradi.

Substansiya - olamning asosi, negizi, yagonalikdan hamma narsa kelib chiqadi.

Sxolastika – soʻzning lugʻaviy maʼnosi “maktab”, “oʻqiydigan joy” kabilarni anglatadi. Sxolastlar deb, Buyuk Karl saroyidagi, saroy maktablaridagi oʻqituvchilarni hamda dini oʻqitishda falsafadan foydalangan oʻrta asr ilohiyotchilarini ataganlar.

Taassurot – David Yum falsafasidagi asosiy tushunchalardan biri.

Tabiiy huquq – insonni tugʻilgandan yashashga boʻlgan huquqlari.

Tabiiy tenglik – insonni tugʻilgandan hamma insonlar teng degan taʼlimot.

Tanatos - Keyinchalik Fpeyd o'z ijodiga yangi tushuncha "Tanatos" (Azpoil - buzg'inchi, o'lim xudoci)ni kipitdi. Bu uning taqiqlangan xipsiy hissiyotlapni chegapalashga olib keldi.

Tasavvur – Jorj Berklining bilish nazariyasidagi asosiy tushuncha.

Transsendental falsafa – nemis faylasufi I.Kantning falsafasi.

“U” - tushunchasiga esa onglilikni tashkil etuvchi ongsizlik kiradi.

Uyg'onish davri – yangi davr arafasida o'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lgan g'oyaviy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jarayondir.

Universaliylar – umumiy tushunchalar haqidagi ta'limot.

Utopiya – hayoliy jamiyat haqidagi ta'limot.

Fan uslubi - Pipsning fikpi bo'yicha, ishonch mustahkam kuchli dalilga asoslanishi kepak. Bunday dalil sifatida Pips fan usulini tahlil qildi. Pipsning fikpicha, fan ob'ektning tahlil qilinishi va ta'piflanishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv peallikdip.

Fanlarning pozitivistik tasnifi - Kontning tasnifi qo'yidagi uch tamoyilga asoslanadi: soddadan murakkabga qarab harakat qilish; mavhumlikdan aniqlikka qarab harakat qilish; qadimgi davr fanlaridan hozirgi zamon faniga qarab harakat.

Fatalistik determinizm – taqdiri-azaldan hamma narsa zarurat asosida sodir bo'ladi, degan ta'limot.

“*Fenomen*” - tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va “mohiyat” tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.

Freydizm - inson psixikasi tuzilishi va rivojlanishini o'rganuvchi oqim.

Xotirlash – haqiqiy dunyodagi hayotini eslash.

Siklik harakat - olamda turli davrlar, bosqichlarning navbatma-navbat o'rin almashishi, aylanma harakati.

Shakl – borliq ma'nosi, shamoyili, u faoldir. Materiya esa passivdir.

Shubha-ishonch ta'limoti - Pips tafakkupni opganizmning tashqi muhitga moslashish faoliyati deb tushundi. E'tiqod, Pipsning fikpicha, hapakat qilishning eng faol usulidip. Bilish jarayonida shubhani yo'qotish va e'tiqodni mustahkamlash Pirsning shubha-ishonch nazariyasining asosiy g'oyasi va tafakkurning asosiy maqsadidir.

Evtyuma – ruhning qulay joylashishi, me'yoriylik.

Ellinizm – bu davr makedoniyalik Iskandar vafotidan keyin miloddan avvalgi 323-yildan boshlanib 30-yillargacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Ekzistensializm - Ekzistensializm falsafasi XX asr boshlarida Germaniyada yuzaga keldi.

Ekzistensiya - tushunchasi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. "Ekzistensiya" - "mavjudlik" degan ma'noni anglatadi.

Emanatsiya – evrilish, nurlanish.

Epikurizm – Epikur ta’limotini davom ettiruvchilari, shogirdlari, salaflari.

Erkinlik - ishchan faoliyatni Sartr erkinlik deb ataydi.

Eros – yaratuvchanlik kuchi, muhabbat quvvati.

G‘oyalar dunyosi – haqiqiy, abadiy, o‘zgarmas dunyo.

Hayotning mazmunsizligi – hayotdan ajralib qolgan insonning hayoti o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Shunday vaziyatda insonning hayoti ma’nosiz degan fikr tug‘iladi.

“Hayot falsafasi” - hayot mazmuni qadriyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar yig‘indisi bir mukammal tizimga keltirilgan ta’limot.

“Hokimiyatga intilish irodasi” - hokimiyatga intilish g‘oyasini Nisshe o‘zining «Hokimiyatga bo‘lgan iroda» asarida chuqur tahlil qilib beradi.

“O‘zi uchun borliq” - “o‘zi uchun borliq“ tushunchasi inson ichki olami mohiyatini ochib beradi.

TESTLAR

1.Falsafa qachon va qaerda fan bo‘lib shakllangan?

A. Miloddan avvalgi P-ming yillikning 2-yarmida Markaziy Osiyoda;

B. Miloddan avvalgi Sh-ming yillik boshlarida Misrda;

*V. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda, Yunonistonda;

G. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda, Hindistonda.

2.Falsafada tabiat «g‘oyalar dunyosining» hosilasi degan ta’limot dastlab kim tomonidan asoslangan?

A. Zardo‘st; B. Demokrit; *V. Platon; G. Aristotel.

3.Qadimgi Yunonistonda materiya harakati inkor etiladigan falsafiy ta’limotning asoschisi kim?

A. Pifagor; *B. Zenon; V. Aristarx; G. Ptolomey.

4.Deizm falsafasining tub mohiyatini anglatuvchi belgi nimadan iborat?

A. Dunyoning ibtidosi deb «dunyoviy ruh»ning e’tirof etilishi;

B. Tabiat moddiy substansiyaning namoyon bo‘lishi deb e’tirof etilishi;

*V. Tabiat – «dunyoviy ruh»ning hosilasi ekanligini e’tirof etadi, lekin tabiatning keyingi rivojlanishi tabiiy qonunlar orqali ro‘y beradi deb hisoblovchi ta’limot;

G. Tabiat bilan «dunyoviy ruh»ning yaxlitligini e'tirof etuvchi falsafiy ta'limot.

5. Qadimgi Yunon falsafasining eng umumiy va alohida xususiyati nimada?

A. Falsafaning alohida ijtimoiy ong bo'lib shakllanganligida;

B. Turli falsafiy oqimlarning shakllanganligida;

V. «Falsafa – fanlarning fani» bo'lib shakllanganligida;

*G. «A» va «B» xollarda.

1. Aristotel falsafasining o'ziga xosligi nimada ko'rinadi?

*A. Uning dualizmida;

B. Metafizik uslubida;

V. Uning materializmida;

G. Uning ob'ektiv idealizmida.

2. Qadimgi Yunon falsafasida atomlar nazariyasining asoschisi kim?

*A. Levkipp-Demokrit; B. Epikur; V. Lukresiy; G. Aristotel.

3. Pifagor ta'limoti bo'yicha «tabiatdan oldin...» nimaning mavjudligi e'tirof etiladi?

A. Moddiy substansiya mavjud deb tushunilgan;

B. Geometrik shakllar va matematik sonlar mavjud bo'lgan;

V. Vaqt va fazo mavjud edi deb tushunilgan;

*G. Har qanday miqdorni ifoda etuvchi sonlar mavjudligi

4. Platon ta'limotidagi ideal jamiyatda davlatni kimlar boshqarishi zarur deyilgan?

A. Buyuk lashkarboshilar;

*B. Faylasuflar;

V. Saylanib qo'yiladigan xalq vakili;

G. «B» va «V» xollarda.

5. Aristotel falsafasidagi «moddiy olam to'rtta unsur dan tarkib topadi» deganda nimalarni ko'zda tutgan edi?

A. Yer, quyosh, oy, yulduzlar;

B. Tosh, tuproq, suv, efir;

* V. Yer, suv, olov, havo;

G. Jism, harakat, fazo, vaqt.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurası xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O'zbekiston, 2000. 8-jild.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Antologiya mirovoy filosofii v 4-x tomax. T.1. chast 1, - M., 1969.
4. Asmus V.F. Istoriya antichnoy filosofii. –M.: Misl, 1985.
5. Asmus V.F. Antichnaya filosofiya. –M., 1982.
6. Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax. –M., 1975-1983.
7. Velikie filosofi. – M. 1998.
8. Grinenko G.V. Istoriya filosofii: Uchebnik. –M.: Vishee obrazovanie. 2009. -685 s.
9. Zapadnaya filosofiya. Itogi tisyachiletiya. –Ekaterinburg, 1997.
10. Istoriya filosofii. –M.: PRIOR, 1997.
11. Istoriya filosofii dlya studentov vuzov. –Rostov na Donu, 1998.
12. Yo'ldoshev S. Antik davr falsafasi. -Toshkent, 1998.
13. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. –Toshkent: Sharq, 2003.
14. Kratkiy ocherk istorii filosofii. –M., 1989.
15. Losev A.F. Istoriya antichnoy estetiki. Pozdnyy ellinizm. –M., 1980.
16. Naxov I.M. Filosofiya kinikov. –M., 1982.
17. Nadtochaev A.S. Filosofiya i nauka v epoxu antichnosti. –M., 1990.
18. Platon. Sochineniya v 3-x tomax. –M., 1968-1972.
19. Platon i yego epoxa. –M., 1979.
20. Raximov I. Falsafa. – T.: Universitet, 1998.
21. Rojanskiy I.D. Razvitie yestestvoznaniy i filosofii v epoxu ellinizma i Rimskoy Imperii. –M., 1998.
22. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -Toshkent, 1992.
23. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. -Toshkent: Sharq, 2002.
24. Falsafa. Qomusiy lug'at. –Toshkent: Sharq, 2004.
25. Xrestomatiya po filosofii. – M. Sentr, 1998.
26. Chanishev A.N. Aristotel. –M., 1987.